

The image shows the interior of a domed structure, likely a shrine or tomb. The architecture features multiple layers of arches. The innermost arch frames a central, ornate stone structure, possibly a tomb or a shrine. The walls and arches are decorated with intricate geometric and floral patterns. The lighting is dramatic, with strong highlights on the arches and deep shadows in the recessed areas.

Abdulla ABDUNABIYEV

J 63.347  
AT-13

# TARIX – MUNAVVAR KO'ZGU



63.343  
A13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**A. ABDUNABIYEV**

# **TARIX – MUNAVVAR KO'ZGU**

***Darslik***

O'zbekiston Respublikasi Oliy va  
o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashrga tavsiya etgan



O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti

**Toshkent – 2007**

**Tarix – munavvar ko'zgu. Darslik.**

Abdulla Gulyamovich Abdunabiye

**Taqrizchilar:** tarix fanlari doktorlari, professorlar  
**D.A. Alimova, Q. Usmonov,** filologiya fanlari doktori  
**H. Homidov.**

Mas'ul muharrir: **G. Yusupova**

**Abdunabiyev A.**

Tarix – munavvar ko'zgu: Darslik/ Abdunabiyev A. – T.:  
O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 80 b.

ISBN 978-9943-319-09-7

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2007.

*"Avvalo, yoshlarimiz tarixni chuqur o'rganishlari lozim. Negaki, o'z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo'lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo'q.. Ana shu tarixdan saboq chiqarmasak, ertaga kechagi kun ko'rguliklari qaytadan boshimizga tushib qolishi hech gap emas. Boshqacha aytganda, kechagi kundan to'g'ri xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat kelajakka ishonch bilan qadam qo'yadi".*

Islom KARIMOV

"Xalq so'zi", 2006-y. 10-may.

lakatlarda tan olinib, u xalqaro huquq amaliyoti bo'lib bormoqda. Bu holat ham tarixning tarbiyaviy kuchi va murabbiylik mohiyatidan dalolatdir.

Ko'p insonlar tajribasidan ma'lumki, o'z tarixini bilish o'zga xalqlar o'tmishiga, ularning turmush tarziga, madaniyatiga, urf-u odati, qarashlariga hurmat bilan yondashish imkoniyatini beradi.

O'tmishni o'rganishda tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirish asosiy vazifadir, deb ta'kidlaydilar Islom Karimov.

Mamlakatimizda uzoq asrlar davomida pinhon bo'lgan tariximizni sinchiklab o'rganish, xolisona tiklash keng yo'lga qo'yildi. Fanlar Akademiyasining Arxeologiya, Tarix hamda Sharqshunoslik institutlarining olimlari, o'quv yurtlaridagi fidoiy o'qituvchilar tariximizni ilmiy asosda yaratish borasida talaygina ishlarni amalga oshirdilar. Avvalo mavjud manbalarni qayta va teran o'rganish yo'lga qo'yildi, yangi manbalar izlandi, topildi. Arxeologlarning yangi topilmalari ham tariximizni o'rganishda muhim o'rin tutmoqda. Tadqiqotchilarning bu boradagi harakatlari qadimiy tariximizni to'laroq yoritishga yordam bermoqda.

Islom Karimov aytganlaridek, "Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo'lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz Xorazm zaminida "Avesto" paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi".

Ma'lumki, "Avesto" eng qadimiy zamonlardan boshlab uzoq asrlar mobaynida shakllangan. U tabiat kuchlarini hurmat qilish, quyosh, yulduz, olovni ulug'lashga chorlovchi qadimiy madhiyalarga boy asar. Unda atrof-muhitni kuzatib, uni idrok etish jarayoni inson tafakkurini harakatga keltiradi, deyiladi. Odamzod endi ikki xil ehtiyoj bilan yashay boshlaydi — biri tirikchilik tashvishi, ya'ni moddiy talab, ikkinchisi — ma'rifiy-ma'naviy chanqoqlik. Bu ikki ehtiyoj inson turmush tarzini belgilaydi, u qulayliklar izlaydi, taraqqiyotga yuz tutadi. Demak, kishilar ilk sivilizatsiyaga qadam qo'yadi va bu jarayon "Avesto"da o'z ifodasini topadi. Bu muqaddas kitob qadim o'lkamizda buyuk davlat, buyuk madaniyat bo'lganligidan dalolat beruvchi hujjatdir. Bu noyob asarda imon uch o'ta muhim tayanchga asoslanadi: fikr sofliqi, so'z sobitligi va amaliy ishlarning inso-

niyligi. Asar jamiyatda barcha odamlarni, ular tanasining rangidan, tilidan, urf-odatlari va yashagan joylaridan qat'iy nazar, hayotning farovon, osoyishtalik bilan borishiga o'zini bag'ishlagan jur'atli, dovyurak, komil insonlar bo'lib yetishishga da'vat etadi.

Asar behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, odamlarni o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga chaqiradi.

Sharqshunos olim S. Oldenburg zardushtiylik insonning yer yuzidagi hayotini yengillatishga, uni baxtiyor qilishga qaratilgan eng oqilona din bo'lgan, deb yozgan edi. Zardushtiylik tarixini keng tadqiqot etgan ingliz olimasi Meri Boysning fikricha, bu ta'limot Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindistonda tarqalgan, Yunonistonga va boshqa hududlarga ham anchagina ta'sir ko'rsatgan. Xususan, yunon donishmandi Aristotel "Avesto"ni chuqur tahlil qilib ustoz Platon g'oyalari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Asarga nemis, fransuz, rus allomalari ham yuksak baho berganlar. Zardushtiylik ta'limotining talaygina xususiyatlari avval yahudiylarga, keyin nasroniylar va so'ng islom diniga o'tadi. E'tibor bering, otash-parastlar kuniga uch marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab sig'inganlar. Ularda bosh yalang ibodat qilish man etilgan. Zardushtiylikning ayrim odatlari, xususan olovga sig'inish belgilari hozirgacha saqlanib qolgan. To'ylarda olov (gulxan) atrofida kelin-kuyovni aylantirish, ayrim qariyalarning daraxtlar va eski devorlar tagiga chiroq yoki sham yoqib turli duolar o'qishlari ham qadimdan qolgan odat. Yopilgan tandir non ham quyoshga taqliddan dalolatdir.

O'zbekiston ahli mamnuniyat va g'urur bilan bu muqaddas asar yaratilganining 2700 yilligini nishonladi.

Mintaqamizda va uning atroflarida topilgan Behistun yozuvlari, yunon, xitoy, sanskrit, fors, arman va boshqa miloddan avval yaratilgan bitiklar, turli hikoyatlar, lotin va yunon tillaridagi tarixiy manbalar, keyingi davrlarda tadqiqotchilar aniqlagan moddiy va ma'naviy topilmalar tariximizni to'laroq o'rganishga imkon bermoqda. Tarix fanlari doktori Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi" monografiyasida qadim zamonda va o'rta asrlarda yaratilgan mavzuga oid yuzdan ortiq yozma manbalar tilga olingan.

Akademik B. Ahmedov "O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari" kitobida qadimgi turk manbalari sifatida to'qqiz runik bitiklar haqida, bir necha so'g'd yozma topilmalar xususida ma'lumot beradi. Ushbu kitobda arab, fors-tojik va turkiy tillarida o'rta asrlarda yaratilgan o'lkamiz tarixiga oid 76 asarga qisqacha sharh berilgan.

Demak, yurtimizning uzoq va boy o'tmishi haqida ko'plab moddiy va madaniy manbalar mavjud. Bular orasida turli janrlarda, qolip-andozada yozilgan tarixiy adabiyot, shu jumladan solnomalar, sarguzashtlar, qissalar, qasidalar alohida o'ringa ega. Bu manbalarni shartli ravishda bir necha guruhga (turkumga) bo'lish mumkin.

Bundan ming yil muqaddam 27 yoshli Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari uzoq o'tmishimizni tasavvur etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar 1957 va 1968-yillarda Toshkentda o'zbek va rus tillarida chop etilgan. Muallif so'g'diylar, xorazmliklar, yunonlar, hindlar, nasroniylar, yahudiylar va boshqa elatlarning islomiyatgacha bo'lgan ijtimoiy va madaniy hayoti hamda tarixini bayon etadi. Al-Beruniyning "Xorazm haqida suhbatlar" va Hindistonga bag'ishlangan asarlari ham muhim tarixiy voqealar-ga boydir.

Demak, mashhur astronom, matematik, geodeziya, geologiya, mineralogiya kabi fanlarning bilimdoni Abu Rayhon Beruniy ayni paytda yetuk tarixchi olim ham bo'lgan.

O'tmish dalillari shuni ko'rsatadiki, mintaqamiz tarixiga oid adabiyot IX—X asrlarga kelib ko'payadi. Arab, fors-tojik va turkiy tillarda talaygina tarixiy kitoblar, solnomalar va risolalar yoziladi. Aholining tarixga qiziqishi ham ortib boradi.

Abulxasan Madoiniy, Al-Yaqubiy va boshqa o'nlab arab tarixchilari halifalik hududi tarixini yaratar ekanlar O'rta Osiyo o'tmishiga e'tibor beradilar. Yirik qomusiy olim Abu Ja'far at-Tabariy (839—923-yy.) yaratgan mukammal tarixiy asar boy manbalarga asoslanib yozilgan. Ko'p jildlik "Tabariy tarixi"da olamning "yaratilishi"dan to 912—913-yillarga qadar arab halifaligi muzofotidagi yurtlar, shu jumladan Movarounnahrda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon etiladi. Ko'pchilik voqealar yilma-yil, xronologik tarzda yoritiladi. Shu boisdan Tabariyning bu asari o'lkamizning VIII—IX asr tarixi bo'yicha asosiy manbalardan hisoblanadi.

Bu asar o'sha paytlardayoq shu qadar katta qiziqish uyg'otganki, uni 963-yili somoniylar davlatining vaziri, ilm-fan homiysi Abu Ali Balamiy arabchadan dari tiliga tarjima qiladi. Tarjimon "Tabariy tarixi"ni muhim yangi dalillar bilan to'ldiradi, ayrim hollarda aniqlik kiritadi. Asarning to'la matni 1867–1874-yillarda Parijda fransuz tilida nashr etiladi. Uning ayrim qismlari bir necha tillarda chop etilgan.

O'lkamiz tarixnavisligining durdonalaridan biri 943–944-yillarda yozilgan "Buxoro tarixi"dir. Uning muallifi Buxoroning Vobkent tumanida 899-yilda tavallud topgan Abu Bakr Narshaxiy bo'lgan. Kitobda vohaning obod bo'lishi, dehqonchilik va hunarmandchilikning rivoj topishi, qadimgi qishloq va shaharlarning barpo bo'lishiga oid tarixiy voqealar yoritilgan. Shuningdek, asarda O'rta Osiyoda arab halifaligi hukmronligining o'rnatilishi, Islom dinining kiritilishi va yoyilishi, Muqanna harakati, somoniylar davlatchiligi haqida so'z boradi. Narshaxiy asari keyingi tarixchilar – farg'onalik Abu Nasr al-Kuboviy tomonidan 1129-yilda va Muhammad ibn Zufar tashabbusi bilan 1178-yilda birmuncha qisqartirilgan va yangi voqealar bilan to'ldirilgan. "Buxoro tarixi" kitobi turli davrlarda fransuz, rus, ingliz, arab, fors, o'zbek tillarida chop etilgan.

Yozma manbalardan bilamizki, Narshaxiydan oldin ham Buxoro o'tmishiga bag'ishlangan asarlar bitilgan ekan. Xususan, Abu Abdulloh ibn Sulaymon al-Buxoriy (vafoti 924-yil) Narshaxiydan qirq yil chamasi oldin shu nom bilan kitob yaratgan. O'sha davrlarda u yoki bu hudud o'tmishi, aholi turmushi, siyosiy va ijtimoiy ahvoli to'g'risida bir qancha solnomalar tuzilgan. Masalan, Abulxaris Asad al-Versiy (v. – 927-y.) Kesh (Shaxrisabz) va Nasaf (Qarshi) ahli haqida, Abu Ahmad ibn al-Kofiy (v. – 957-y.) Xorazmning qadimiy tarixi to'g'risida asarlar yozgan. Abul Abbas al-Mustavfiy X – XI asrlar oralig'ida "Samarqand tarixi"ni yozadi. Ushbu asar qadim shahrimizning ibtidoiy zamonlardan to X asrgacha bo'lgan tarixi, uning osori-atiqalari, shuningdek, Nasaf va Kesh viloyatlarining tarixini o'z ichiga olgan. Samarqand tarixiga oid keyingi kitob muallifi Abu Said al-Idrisiy (v. – 1015-y.) bo'lgan. Bu asarning davomini Najmuddin an-Nasafiy (1068–1142-yy.) bitgan. Uning shogirdi Abul Fazl as-Samarqandiy yaratgan "Kichik qandiya" ustozi yozgan asarning qisqartirilgan nusxasi sifatida bizgacha yetib kelgan.



Toshkent o'tmishiga oid ko'p ma'lumotlar IX—X asrlarda Al—Xorazmiy va At-Tabariy asarlarida, Abu Is'hoq Istaxriy (850—934-yy.) sarguzashtlarida, XI asrda Beruniy va Mahmud Qoshg'ariy asarlarida mavjud. Shunindек, Kubo, Axsikent, Termiz, Chog'oniyon tarixiga tegishli yozma manbalar ham bor.

O'sha paytlardagi tarixiy adabiyotning talaygina qismi turli sulolalar va hukmronlarning hokimiyat tepasiga kelishi, saltanatni idora qilish tajribasi va harbiy yurishlariga bag'ishlangan. Masalan, Abubakr Balazuriy arablarning O'rta Osiyoga huruji, Ibn Xurdadbeh esa arablarning bu yerdagi iqtisodiy siyosati haqida yozadilar. Bu davrlarda Somoniy va Qoraxoniy sulolalarining olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, markazlashgan davlatni idora qilish tajribasi xususida bir necha tarixiy asarlar yaratiladi. XI asrda Abunasr O'tbiy, Abufazl Bayhaqiy, Abu Said Gardiziylar g'aznaviylar sulolasiga oid, Nizomulmulk saljuqiylar olib borgan siyosat xususida e'tiborga molik kitoblar yozadilar. Alauddin Juvayniy va Rashiduddinlar Chingizxon tarixi va mo'g'ullar bosqinini yozgan bo'lsalar, Shihobuddin Muhammad Nisoviy xorazmshohlar tarixi, Jaloliddin Manguberdining jasorati xususida aniq faktlar bilan hikoya qiladi.

O'zbekiston tarixi manbalari ustida so'z borar ekan, XI asrning ikkinchi yarmida yaratilgan Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillarga bag'ishlangan mashhur asarini tilga olish joizdir. Uning "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy so'zlar lug'ati") asari keng mintaqadagi turk qabilalari va urug'larining tili, lahjalari, etnik tarkibini o'rganishda qimmatli manbadir. Muallif turk tilining boshqa tillar orasidagi o'rni va ahamiyati, uning xususiyatlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Uch jildlik kitobda X—XI asrlarda turkiy xalqlar orasida iste'molda bo'lgan sakkiz mingdan ortiq so'zlar atroflicha izohlangan. "Lug'at"da yigirmadan ortiq qabilalar, ularning belgilari, turar joylari hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni batafsil ko'rsatilgan. Asarda turli shevalardagi uch yuzga yaqin maqollar, yetti yuz satrdan ortiq she'rlar keltirilgan. Qisqasi Qoshg'ariy asari turkiyzabon xalqlar o'tmishini, shu jumladan, o'zbek xalqining etnik tarixini keng va xolisona tiklashda katta o'rin egallaydi. Bu asar turli davrlarda bir nechta tillarda chop etilgan, faqat XX asr davomida arab, o'zbek, usmonli turk, ingliz, uyg'ur tillarida nashr etilgan.

Tariximiz xususidagi adabiyot bilan tanishar ekanmiz yana bir masala to'g'risida to'xtalmoqchimiz. Talaygina asarlar mashhur shaxslarga, ularning jamiyatdagi o'rniga bag'ishlangan. Masalaning e'tiborga molik tomoni yana shundaki, nafaqat katta amaldorlar to'g'risida, balki yirik olimlar, adiblar haqida ham asarlar bitilgan. Masalan, Nizomi Aruzi Samarqandiyning "Ajoyibotlar to'plami" asarini olaylik. Unda O'rta Osiyoning X—XI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan. Lekin asarning muhim xususiyati shuki, muallif Abu Ali ibn Sino, Al-Beruniy, Umar Hayyom, Rudakiy, Firdavsiy kabi allomalar hayoti va ijodi xususida ham qiziqarli ma'lumotlar keltiradi.

Biz yuqorida faqat IX—XII asrlarda bitilgan tarixiy adabiyotning bir qisminigina umumiy holda tilga oldik. Keyingi asrlarda ham mashhur tarixnavislar asarlarining ko'pchiligi bizgacha qo'lyozma yoki keyingi davrlarda nashr etilgan holda yetib kelgan. Bu o'rinda Nizomuddin Shomiy, Mu'inuddin Natanziy, Hofizi Abru, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Abdulla Nasrullohiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Xofiz Tanish Buxoriy, Muhammad Haydar asarlarida xalqimizning mo'g'ullar bosqiniga qarshi kurashi, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi, uning markazlashgan saltanat tuzishi, temuriylar sulolasi hukmdorligi davridagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, shayboniylar va joniylarning O'rta Osiyodagi faoliyati, o'lkaning uch xonlikka bo'linib ketish sabablari yoritilgan.

XVIII—XIX asrlarda ham Munis, Ogahiy, Mirzo Olim Toshkandiy, Ahmad Donish, Abu Tohirxo'ja, Muhammad Solih Toshkandiy, Niyoz Muhammad Xo'kandiy, Is'hoqxon Ibrat kabi solnomachilar asarlari Vatanimiz tarixining ko'z oldimizga to'laroq keltirishda ko'makdir. Ma'rifatparvar M.Abdurashidxonov 1911-yili "Turk qavmlari tarixi"ni yozib jadid maktablariga darslik sifatida taqdim etadi.

O'lkamiz tarixchiligiga nazar tashlar ekanmiz yana bir muhim voqelikka e'tibor berish lozim. Turli davrlarda o'tgan ko'p esli-hushli hukmdorlar moziyga qarab ish tutish, tarix saboqlariga quloq solish mohiyatini anglaganlar. Davlat arbobi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tarixning qadrini chuqur anglagan, tarixnavislarga yaqindan ko'mak berib kelgan. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Zahiriddin Boburning

"Boburnoma"si, Muhammad Solihning "Shayboniynoma"si, Abulg'ozixonning turkiylar shajarasiga oid asarlari yurtimiz o'tmishini to'laroq tasavvur etishda muhim o'rin egallaydi.

Ko'rib turibmizki, yurtimiz tarixi mazmunli va boy manbalarga ega. Yana shuni unutmaylikki, bu asarlarning mutlaq ko'pchiligi qo'lyozma sifatida bizga yetib kelgan. Ular o'z davrida bitilgan bo'lib, ko'p holda xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan. Chunki, u vaqtlarda noshirlik kashf etilmagan edi. Manbalarning faqat oz qismigina bizga kitob sifatida, ayrim hollarda tarjima etilgan holda yetib kelgan.

Demak, o'lkamizda uzoq asrlardan buyon tarixga qiziqish mavjud bo'lgan. Moziydagi muhim voqealar bayonini qog'ozga tushirish, ya'ni tarixini yozishga qodir, mulohazakor insonlar talaygina bo'lgan. Ular sa'y-harakati tufayli yuzlab tarixiy asarlar vujudga kelgan. Bu nomalardan ayonki, xalqimiz faxrlansa arzigudek sermazmun va ibratli tarixga ega.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida bir qator sharqshunos rus olimlari yurtimiz tarixini o'rganish bilan shug'ullandilar. V. Bartold, Ye. Bertels, N. Veselovskiy, V. Vyatkin, N. Ostroumov, A. Semenov, A. Yakubovskiy kabi tadqiqotchilar o'tmishimizga doir birmuncha manbalar bilan tanishdilar va o'zlari anglagan holda Turkiston tarixi va madaniyatining bir qancha jihatlarini yoritdilar. Ular asarlaridagi talqinlar sho'rolar davrida chop etilgan O'zbekiston tarixi kitoblarida bayon etildi. Ta'kidlash joizki, bu sharqshunoslar tariximizga oid manbalar bilan to'la tanish emas edilar, ehtimol buning imkoniyati ham bo'lmagandir. Undan tashqari xorij olimlari o'z idroki, dunyoqarashlari, shaxsiy mulohazalariga ega bo'lgan holda o'lkamiz o'tmish voqealariga tasnif berganlar. Buning ustiga, yurtimiz tarixi Rossiya tarixidan boy bo'lgan holda uni kamsitib ko'rsatish sovet tarixshunosligida odat tusiga kirgan edi. Shularni inobatga olsak, sovetlar davrida bir necha bor nashr etilgan "O'zbekiston SSR tarixi" ko'p jihatdan subyektiv va kemptik holda yozilganligiga ajablanmasa ham bo'ladi.

Keyingi yillarda tariximizga oid talaygina asarlar qayta nashr etildi. Bular orasida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma" asarlari, hamda "Meros" turkumida chop etilgan Abu Tohirxo'janing "Samariya", Narshaxiyning "Buxoro tarixi",

Bayoniyning "Xorazmshohlar shajarasi", Ibratning "Farg'ona tarixi" kitoblari mavjud.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash lozimki, O'zbekiston tarixchilari o'tmishimizga doir asarlarni va boshqa tarixiy manbalarni rus tilida ham targ'ib etmoqdalar. Mustaqillik yillarida "История Узбекистана в источниках", "Материалы по истории и истории науки и культуры народов Средней Азии" majmualari nashr etildi. Tarix fanlari doktori A. O'rinboyev tahriri ostida o'tmishimizga doir manbalar to'plami "Собрание восточных рукописей" rukni ostida 1998-yili chop etildi. Umumiy pajmi 56 taboq bo'lgan bu salmoqli majmuada Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan o'nlab nodir tarixiy asarlar bayoni va ta'rifi berilgan.

Shuningdek, davrimiz tarixchilari A. Sagdullayevning "Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda", "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi", E. Rtveladze, A. Saidov, Ye. Abdullayevlarning "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar", B. Ahmedovning "Tarixdan saboqlar" asarlari, E. Rtveladzening tafsilotga boy "Buyuk ipak yo'li", K. Shoniyozovning "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" monografiyalari, Muhammad Nosirning "Nasaf va Kesh alomalari" to'plami bugungi talabalar uchun muhim manbadir.

Professor D. Alimova rahbarligida yaratilgan "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" deb nomlangan to'plamda ham ilgari kam yoritilgan muhim ma'lumotlar va mazmundor mulohazalar mavjud.

Mustaqillik yillarida bir guruh jonkuyar olimlar tomonidan yozilgan uch jildli "O'zbekistonning yangi tarixi" kitobi o'tmishimizni yangi nigoh bilan o'rganishga imkon bermoqda. Tariximizni sinchiklab o'rganishda 2000–2006-yillarda chop etilgan 12 jildlik O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi jiddiy ko'mak berishi shubhasiz. Uning har bir jildida o'tmishimizga oid ko'plab aniq ma'lumotlar mavjud. Bu qobusnomaning yakuniy 12-jildi faqat yurtimizga oid bo'lib, unda O'zbekiston o'tmishi va bugungi qiyofasi ilmiy asosda yoritilgan.

O'tmishimizni to'laroq o'rganishda adabiyotshunoslarning yaratgan tarixiy asarlari ham o'ta muhimdir. Xususan, Abdulla Qodiriy, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov kabi katta iste'dod egalari qalamiga mansub asarlarni eslaylik. Yozuvchi Maqsud Qoriyevning mustaqillik yillarida

yaratgan "Spitamén", "Ibn Sino" va "G'aznaviylar" romanlari tariximizning bir qancha pinhon manzaralarini ochib beradi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan tariximizga e'tibor davlat darajasidagi siyosatga ko'tarildi. Bu siyosatning asosiy xususiyati shundaki, u avvalo ma'naviy merosga tayan-gan holda amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida bir qan-cha qadimiy shaharlarning yubileylari ko'tarinkilik bilan o'tdi. "Avesto"ning 2700 yilligi, Xorazm Ma'mun akademiyasining ming yilligi ham tantanali ravishda nishonlandi. Tariximizda o'chmas iz qoldirgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi jasur davlat arboblari, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur, Alisher Navoiy kabi buyuklar, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi donishmandlar, islom falsafasini teran anglab targ'ib qilgan imom al-Buxoriy, at-Termiziy singari ulug' zotlar va boshqa-boshqa allomalarning faoliyati keng va xolis yoritildi. Ularning hayoti, turmush tarzi xalqimizda g'urur tuyg'ularini uyg'otdi. Bu umumxalq miqyosida o'tkazilgan tantanalar tariximizning, madaniyatimizning, ma'naviyatimizning nechog'lik boyligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida yurtimiz tarixining konsepsiyasi hamda o'zbek xalqi etnogenezi o'rganish dasturi ishlab chiqildi. U arxeologiya, antropologiya, etnografiya, toponomika, tilshunos-lik, o'lkashunoslik bilimlari xulosalariga asoslangan. Bu konsepsiya aniq topilmalar, chuqur tadqiqotlar, qadimiy yozma man-balar, boshqa ashyoviy va ma'naviy dalillarga tayangan holda tuzilgan. Shu asnoda maktablar, litseylar va kollejlari uchun O'zbekiston tarixi bo'yicha arzigulik darsliklar yaratildi. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanmalar nashr etilmoqda. Bular ora-sida professorlar R. Murtazoyeva, A. Sagdullayev, V. Genshtke-lar tahriri ostida chop etilgan o'quv qo'llanmalari masalani to'laroq yoritib bergan. 2006-yili chop etilgan "O'zbekiston tarixi" kitobi Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik sifatida vujudga kelgan asardir. Uning mualliflari tajribali domlalar Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burhonova ko'pdan beri kutilgan darslik yaratib muhim zaruriy ish qilgan-lar. Shubhasiz bu kitob (uning nashr bosma tabog'i 32.5) ko'pchilik talabalarga o'tmishimizni to'laroq o'rganishda qo'l keladi.

O'zbekiston Milliy universitetining tajribali professor-o'qituvchilari A.Abduraimov va G.Fuzailovalar tuzgan "Tarixiy

manbashunoslik" o'quv qo'llanmasi ham yosh tarixshunoslarga jiddiy uslubiy yordam berishi mumkin. Shuningdek, o'tmishimizga qiziqqanlarga mo'ljallangan arzigulik tarixiy risolalar ko'paymoqda. "O'zbekiston tarixi" jurnalining chop etilishi ayni muddao bo'ldi. Fanlar Akademiyasi xodimlari tashabbusi bilan tayyorlanayotgan to'laqonli, yaxlit, boy ilmiy manbalarga asoslangan, ko'p jildli, xalqimizga munosib Vatan tarixini hamda o'zbek davlatchiligining shakllanishi tarixini yozib tugallash ham yaqinlashmoqda.

Xolis tariximizni yaratishga bu qadar katta e'tibor berish bejiz emas. Chunki u ulkan tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'z vatanini, xalqini, umuman inson o'tmishini idrok etish kishida vatanparvarlik hissini uyg'otadi, o'zlikni anglash, insoniylik fazilatlar, milliy madaniyat, an'ana, udumlar ma'nosini bilish, qadriga yetishni o'rgatadi.

Moziyga nazar tashlasak, uning bir qator muhim, ibratli jihatlarini nigohimiz oldida yaqqol gavdalanadi. Tarix xalqimiz hayotida asrlar davomida peshlangan qadriyatlarimiz negizini, mentalitetimiz asosini tashkil etadi va milliy istiqlol g'oyasining muhim manbai sifatida namoyon bo'ladi. Islom Karimov "Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba – bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizini anglab bo'lmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari o'z davrida tarixiy haqiqat tufayli tug'ilgan", deb ta'kidlagan edilar.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek, ma'rifatli, ma'naviyati yuksak odam, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yuruvchi inson, albatta, o'z tarixini yaxshi bilgan bo'lishi darkor. Chunki, tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Demak, yurtimiz fuqarolarida tarixiy ongini shakllantirish muhim zaruratdir.

Zero, tarix – munavvar ko'zgu, tafakkur bulog'i. Uni idrok etib ish qilmoq xayrli va kelajakka umid bilan qarab samarali mehnat qilish kafolatidir. Xullas, tarixni o'rganish ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini idrok etgan komil inson omili desak o'rinli bo'ladi.

## 2. JAMOA, SHAXS VA DAVLAT XUSUSIDA

Eslaylik, o'lkamizda eng qadimgi odamlar ilk paleolit davrida yoyilgan. Dastlabki manzilgohlar Sirdaryoning yuqori qismida, shuningdek, Farg'ona vodiysida topilgan. Surxondaryoning Boysun tog'laridagi g'orda, Omonqo'ton, Obi-rahmat g'orlarida odamlar yashagan ekan. Ular ovchilik, terimchilik bilan shug'ullanib, ibtidoiy tarzda hayot kechirganlar.

Bronza davriga oid manzilgohlarda ajdodlarimiz turarjoylari vujudga keldi. Chorvachilik va dehqonchilik rivojlandi. Qabilalar o'rtasida o'zaro aloqalar, mahsulot ayirboshlash boshlandi. Ma'lumki, jamoa kishilarning qadimiy uyushuvidir. Unda ishlab chiqarish vositalari odatda barchaning mulki bo'lgan. Jamoa asosan o'zini o'zi boshqargan. Urug', oila, xonadon, qo'shnichilik munosabatlari rivoj topib jamoa yangi bosqich sari intiladi.

Ibtidoiy jamoa davrining oxirlarida mintaqamizda davlatlar shakllana boshlaydi. "Avesto"da miloddan avvalgi VIII—VII asrlarda harbiy demokratik belgilarga ega bo'lgan tuzilmalar mavjud bo'lganligi haqida yozilgan. So'ng bu tuzilmalar qudratli davlatlarga aylanadi.

Ma'lumki, davlat, davlatchilik o'z mohiyati bilan bu insonlarning dolzarb talablarini, tub ehtiyojlarini amalga oshirishga, jamiyatda barqarorlikni o'rnatish va saqlashga xizmat qiluvchi dargohdir.

Tariximiz dalolat beradiki, davlat siyosiy tashkilot sifatida ma'lum bir jamiyatni uyushtiradi, tashkil topgan hokimiyat bilan uyg'unlashtiradi.

Xususan, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida davlatni mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan tuzilma deb ta'riflanadi.

Bundan uch yarim ming yil avval chamasi o'lkamizda aholi markazlarining paydo bo'lishi mehnat qurollarining takomillashuviga va davlatchilikning shakllanishiga turtki bo'lgan. So'ng Samarqand, Kesh, Nasaf, Buxoro, Xiva, Marv, Termiz, O'sh, Toshkent, Kubo, Xo'jand, Marg'ilon, Koson kabi shaharlar vujudga keldi. Shahar madaniyatini ma'muriy boshqaruvsiz tasavvur etib bo'lmasligi siz-u bizga ma'lum.

Mintaqamizda Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya podsholigi

va So'g'diyona davlat uyushmalaridan so'ng miloddan avvalgi III—II asrlarda Dovon (Farg'ona), Qang'u (Sirdaryoning o'rta oqimi, jumladan Toshkent vohasi) davlatlari, shuningdek, Marg'iyona, Ustrushona, Parfiya paydo bo'ldi. Mintaqamizda shakllangan qadimgi davr davlatchiligi o'zida jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini ma'lum darajada mujassamlashtirgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Milodiy asrlar boshlarida Kushon saltanati, Eftaliylar davlati, so'ng Turk xoqonligi vujudga kelgan. Markazlashgan somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar davlatlarida boshqaruv tizimi yangi bosqichga ko'tariladi.

Davlatchilik shakllana boshlagach inson hayoti va odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ma'lum qonun-qoidalar doirasida bo'lgan. Xususan, "Avesto"da odamlarning jamiyatdagi huquqiy, axloqiy munosabatlari batafsil ifoda etilganligi ma'lum.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining muhim omillaridan biri, yurtda siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lgan davlatchilik o'lkamizda uzoq asrlar davomida tashkil topib, u zamon taqozosiga ko'ra takomillashdi, murakkab tizimga aylanib bordi.

Olimlar fikricha, tarixni davr, zamon va shart-sharoit harakatga keltiradi. Zero, qadimgi ajdodlar hayoti shu ikki o'lchamda kechgan. Ma'lumki, dastlabki sivilizatsiya kurtaklari Sharqda bevosita ibtidoiy hayot sharoitlaridan kelib chiqqan. Taraqqiyotning bu kurtaklari odamlarni jamoa bo'lib yashashga da'vat etgan va turli bid'at, urf-u odatlar, ijtimoiy munosabatlarga asoslangan. Qadimdan inson xulqi va faoliyatida ajdodlar tajribasiga tayanish, yoshi ulug'larga hurmat va taqlid qilish odat tusiga aylana boshlagan edi. Bu sifatlar jamoa qadrini bilishga undadi va bora-bora an'analarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu alfozda aholining turmush tarzi shakllana boshlagan.

Ajdodlarimiz tinimsiz mehnat, izlanish, atrof-muhitni anglash, idrok etish yo'lida bir umr harakatda bo'lganlar, qadam-baqadam to'siqlarni yengib yuksalishga erishganlar. Markaziy Osiyo mintaqasi insoniyat taraqqiyotining qadimgi o'choqlaridan biridir. Shu bilan birga sivilizatsiya ko'p elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir.

Masalaning yana bir tarafi xususida ikki og'iz so'z. Sho'rolar davrida rasmiy targ'ibot o'tmishni xato, qusur, adashishlar



tarixidan iborat, deb tushuntirar edi. Chunki u paytda hukmron bo'lgan mafkura oldingi ijtimoiy-siyosiy tuzumlarini yomonlashdan manfaatdor edi. Shu bois, o'tmishni qoralab kishilarni mensimaslikka undaganlar, an'analarni esa sarqit deb ataganlar.

Ilmiy asosda yaratilgan tariximizni sinchiklab, mehr bilan qayta o'rganar ekanmiz ayon bo'ladiki, sho'rolar hukmronligi davrida tarixni o'rganishga g'ayriilmiy, g'arazli yo'sin qo'llanilgan ekan. U paytlar kommunistik mafkuradan kelib chiqib, insoniyat o'tmishi bu — qarama-qarshi sinflar kurashidan, jamiyat esa doimiy ziddiyatlardan iborat, deb tushuntirilgan. Va shu bois boylar sinfi xalqqa muttasil jabr qilib kelgan, deyilar edi. Hukmdorlar (shohlar, xonlar, amirlar, sultonlar, beklar va boshqa amaldorlar) johil, shafqatsiz, berahm kishilar bo'lgan deb talqin etilar edi. Inson ma'naviyatiga asos bo'lmish dinni esa af'yun deb tushuntirishga uringanlar. Ahvol shu darajaga bordiki, O'zbekiston o'quv yurtlarida o'lkamiz tarixi kentik holda, o'lda-jo'lda o'qitildi. Oliy o'quv yurtlarining deyarli barchasida tariximiz emas, balki KPSS tarixi o'qitildi. Shu sababdan bugungi o'rta avlod va katta yoshdagi kishilar talabalik davrida Vatanimiz tarixi xususida olgan taassuroti sayoz. Ularning aksariyati bu g'ayritabiiy holatdan chiqish niyatida xolis bitilgan adabiyotlar istab, o'tmishimizni chuqur va keng o'rganishga intilmoqdalar. Ularga sidqidildan "balli" deymiz.

Endilikda xolis yoritilgan o'tmishimizni o'rganar ekanmiz, ko'z oldimizda umuman boshqacha manzara namoyon bo'lmoqda. Ishonchli dalillar guvohlik beradiki, o'lkamizda bundan besh-olti ming yil muqaddam ajdodlarimiz metall bilan tanishgan ekanlar, deyarli to'rt ming yil avval sug'orma dehqonchilik vujudga kelgan, dastlabki shaharsimon Sopollitepa, Jarqo'rg'on, Mullalitepa kabi manzillar paydo bo'lgan.

"Avesto" ma'lumotlari, arxeologik tadqiqotlar guvohlik beradiki, miloddan avvalgi VII—VI asrlarda Markaziy Osiyoda Afrosiyob, Yerqal'a, Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Ko'zalikqir kabi dastlabki shaharlar bunyod etiladi.

Zero mintaqamizda qadimgi tosh davridan boshlab ibtidoiy madaniyat vujudga kelganligi (Joytun, Kaltaminor, Xisor madaniyatlar) va bronza davriga oid boshqa yodgorliklar dalolat beradi. Davlatchilikning vujudga kelishi bu jarayondagi yirik bosqich bo'ldi.

Bilamizki, jamiyat kishilarining tarixan qaror topgan hamkorlik fazilatlarining majmui. Jamiyatdagi barcha narsa odamlarning muayyan faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Jamiyatning tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, davlat mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma. Tarixdan bilamizki, dastlabki davlatlar dehqonchilik hududlari bo'lgan Misr, Mesopotamiya, Elam, Hindiston, va Xitoyda bundan 3,5–5 ming yillar muqaddam vujudga kelgan. O'quvchilarimiz yodida bo'lsa, davlatning boshqaruv shakllari o'tmishda turlicha bo'lgan. Ko'pchilik yurtlarda monarxiya, ya'ni yakkahokimlik uzoq vaqtlar davom etgan. Ular Sharqda podshohlar, xonlar, amir-u sultonlar deb, G'arbda qirollar, shohlar, imperatorlar, hukmdorlar deb yuritilgan. Respublika shaklidagi boshqaruv inson tarixida ilk bor Yunonistonda va Rimda paydo bo'lganligini ham eslaylik.

Qadim o'tmishdagi hukmdorlar qanday yo'sinda, andozada davlatchilik tizimini tashkil etganlar, qanday tamoyillarga tayanganlar va mamlakatni taraqqiyot yo'liga boshlaganlar kabi savollar tug'ilishi tabiiydir. O'zimizning yurtimizdachi? Ular qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lganlar?

Bunday savollarga xolis tariximiz javob beradi. Odamzod o'z tarixida issiqni ham, sovuqni ham ko'rgan ekan. Tirikchilik deb turli ishlarni qilgan. Hayot tarzini yengillashtirish, o'z turmushini yaxshilash niyatida ko'p fikr yurgizgan. Shu bilan birga turli-tuman asbob-u uskunalarni o'ylab topgan. Tabiatdan to'laroq foydalanish yo'lini qidirgan. Inshootlar, manzilgohlar barpo etgan, to'g'on qurib suv chiqargan. Bu jarayonda eslirog'i, epchilrog'i tashkilotchi, ishda bosh-qosh bo'lgan. Shu alfozda odamlar peshlangan, ko'proq qobiliyatga ega bo'lganlar rahbar bo'lgan.

Odamlar uni oqsoqol, yoshulli, otaxon, boshliq, rahnamo, yo'l boshchi, sarkor, sardor kabi so'zlar bilan atab kelgan. "Avesto"da urug' oqsoqoli "vispati", jamoa boshlig'i "zantupati" deb atalgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ilk temir davrida O'rta Osiyo janubidagi jamoalarda "uy egasi", "qishloq oqsoqoli", "oqsoqollar kengashi" kabi mansablar mavjud bo'lgan ekan. Ularda

uyushtiruvchilik, odamlarni qovushtiruvchilik fazilatlarini namoyon bo'lgan. Ularni rahbar sifatida boshqalar tan olgan, hurmat qilgan, aytganiga ko'ngan. E'tiborlisi shuki, rahnamalar saralanishida ularning shaxsiy axloqiy xislatlari, aql-farosati va nufuzlari inobatga olingan ekan.

Shaxs kim? U ne xislat va fazilatlariga ega? U qayerda va qanday sharoitda shakllanadi? Qanday sifatlarga ega bo'lmog'i darkor?

Shaxs kishining tashqi qiyofasi bilan emas, balki uning o'z sohasida erishgan yutug'i, ijtimoiy taraqqiyotga qo'shgan his-sasi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy hayotda ko'zga ko'ringan, aniq va ravshan e'tiqodga ega bo'lgan insonni yirik siymo, shaxs desa to'g'ri bo'lar. Ayni paytda shaxsning o'ziga xos jihatlari — bilimi, xulqi, odobi hamda boshqa xususiyat va fazilatlarining turli xilligini ko'ramiz.

Zero, shaxs — bu o'ziga xos yorqin sifatlarga ega bo'lgan ziyarak, farosatli, hissiyotli, irodasi kuchli inson. Uning xatti-harakati, dunyoqarashi, qilgan ishi jamiyat taraqqiyotiga, ko'pchilik manfaatini yoqlashga qaratilgan. Xullas, shaxs — insoniyat tarixida iz qoldirgan kishi.

Insonning shaxs bo'lib shakllanishida tarixiy davr va vaziyatning o'rni kattadir. Shaxs jamiyatning bir a'zosi. U jamiyatdan tashqarida bo'lishi g'ayritabiiydir. Chunki kishi ko'pgina narsalarsiz ham yashay oladi, lekin tanholikda yashay olmaydi. Uning baxt-saodati jamiyatdan tashqari bo'lmaydi. Shu bois shaxs jamiyat bilan doimo bog'liq.

Tarixiy shaxslar deganda, ko'pincha siyosiy arboblardan, rahnamolarni tasavvur etamiz. Shuningdek, hokimiyatni suiiste'mol qilib, o'z foydasini ko'zlab ish ko'ruvchi hukmdorlar ham adabiyotda shaxs, salbiy shaxs deb yuritiladi.

Eslaylik, siyosiy yetakchi — bu jamiyatni jipslashtiruvchi, ijtimoiy tartibni saqlab qolish va mustahkamlash uchun turli vositalarni qo'llovchi hukmdordir. Shaxsning jamiyatdagi o'rni xususida ajdodlarimiz e'tiborga molik mulohazalar bildirganlar. Alisher Navoiy tarix ma'nosini tushuntirar ekan, u shahzoda Badiuzzamonga deydiki: "Hukmdorning qay biri zulm otini surdi-yu, qay biri adolat bilan dong taratdi va oxiri bundan nima murod hosil bo'lganini tarixdan bilamiz. O'lkada nima obod bo'ldi, mamlakat nimadan tinchlikka yuz tutdi. Har bir shaxsning sifati nima-yu, kamchiliklari nima, hamma-hammasi tarixda bitilgan."

Tarixdan ma'lumki, qadim zamonlarda rahnamolar, yurt-boshilar paydo bo'la boshlagan davrlarda hokimiyatga intilish, uning uchun kurash ziddiyatlarga, turli nizolarga ham olib kelgan ekan. O'sha paytlarda mamlakat barqarorligini ta'min etishning asosiy yo'sinlaridan biri taxtni sulola a'zolaridan boshqalarga bermaslik deb topilgan. Asta-sekin vorislik tushunchasi paydo bo'ladi. Vasiyat qilib toj-u taxtni o'z zurriyodiga qoldirish udumi vujudga keldi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Ossuriya, Bobil, Eron, Hindiston, Xitoy, Yunoniston kabi yurtlardagi davlat rahnamolari shu alfozda siyosiy maydonga chiqqan. Bu an'anani Markaziy Osiyo tarixida ham ko'ramiz. Bunday odatlar bir necha ming yillar davomida barcha hududlarda asosiy taomil bo'lgan. Keyingi 2–3 asr mobaynida bu odat o'z ta'sirini yo'qota boshladi. Lekin taxt uchun kurash uzoq asrlar davomida ko'p fojialarga olib kelganligi ham tarixda bor gap.

Davlat rahbarlarining tarixdagi o'rni haqida qadim o'tmishda ham, keyingi davrlarda ham ko'p donishlar turli mulohazalar bildirganlar. Ayrim olimlar jamiyatdagi barcha o'zgarishlarni shaxsning ongli faoliyatiga bog'laydi. Boshqalari esa uning haddidan oshib ketishi ko'p falokatga olib kelganligini ta'kidlab, buning oldini olish yo'llarini topishga intilganlar.

Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" kitobida rahnamolar faoliyatini tahlil etib, ularning tarixdagi o'rniga yuksak baho beradi, arboblarning muhim fazilatlarini to'g'risida so'z yuritadi.

Tabiiyki, siyosiy arboblarning mustaqil shaxslardir. Bu borada yurtdoshimiz faylasuf Anvar Choriyevning fikri e'tiborga loyiq. Uningcha, mustaqil shaxs uchun asosiy komponentni — mustaqil fikrlash, mustaqil ishlash va mustaqil yashashni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu talablar o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatib, shubhasiz, biri ikkinchisiga ta'sir o'tkazadi. Tariximizga murojaat qilsak ayon bo'ladiki, dastlabki davrlarda farosatli rahnamolar idora qilish yo'sinlarini sharoit taqozosiga qarab olib borganlar. Ular, shuningdek, miloddan avvalgi asrlardayoq qo'shni Eron, Yunoniston, Xitoy, Hindiston kabi yurtlar bilan iqtisodiy, madaniy munosabatlar orqali ham o'zga mamlakatlar tajribasini tanqid elagidan o'tkazganlar va qiyoslaganlar. Davlatchiligimiz shakllanishida "Avesto"ning o'rni juda katta bo'lgan. Bobil davlatida deyarli to'rt ming yil muqaddam kashf etilgan Hammurabi qonunlari, uch ming yil muqaddam

Isroilda hukmron bo'lgan Dovud o'g'li Sulaymon karomatlari, Yunonistonda shakl topgan "Solon demokratiyasi", Xitoydagi "Konfutsiya" falsafasi kabi ma'lumotlar mazmuni u yoki bu darajada qadimgi ajdodlarimizga ma'lum deb faraz qilsak haqiqatga yaqin bo'ladi.

Somoniylar Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishda Eron sasoniylari davlati tizimi bilan va Arab xalifaligidagi davlat boshqaruv tajribasidan keng foydalanganlar. Buxorodagi saroyda Firdavsiyning "Shohnoma"si va boshqa dostonlar maroq bilan tinglanib, u yerda saltanatni idora qilish uslublariga alohida e'tibor berganliklari tarixda bor gap.

Ma'lumki, har bir siyosiy arbobning o'z rahnamolik burchini qanday anglashi, amalga oshirishi va namoyish etishi tarixda o'ta muhim va ko'pqirrali masaladir. Davr taqozosi bilan ko'p hollarda saltanat barpo etish va boshqarish, hukmdor, uning yordamchilari vazifalari, aholining siyosatga bo'lgan munosabati masalalarini ishlab chiqishga harakat qilindi. Bu jarayon XI asrdan boshlab jiddiy asarlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

XI asrda Qoraxoniylar davlati jadal shakllanib borayotgan davrda bolasog'unlik olim Yusuf Xos Hojib keng hajmli g'oyaviy-falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega asar yozgan edi. Unda markazlashgan kuchli davlat barpo etish uchun kurashuvchi donishmand, adolatli hukmdor qiyofasini yaratdi. U xalq va davlat, davlat boshlig'i va fuqaro, olim va hokim, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar, hukmron tabaqalarning hokimiyat xalq oldidagi burchi haqidagi muhim muammolarni ilgari suradi.

O'ta ziyaraklik va donishmandlik bilan bitilgan bu asar "Qutadg'u bilig", ya'ni to'kinchilikka, saodatga boshlovchi bilim nomi bilan siz-u bizga ma'lum. Qisqasi, bu kitob davlatni boshqarish odobiga bag'ishlangan nodir asardir. Unda muallif to'rt tayanch timsoliga e'tibor qaratadi. Bular: adolat, so'ng qut, ya'ni baraka (omad), uchinchisi aql-u zakovat va to'rtinchisi qanoatdir, deydi olim.

Muallifning davlat arbobi qiyofasi xususidagi fikrlari o'ta ibratlidir. Uning yozishicha, shohlikka davogarlariga xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, yaxshi ish yuritish uquvi bilan ham siylaydi. Shohning insoniy xislatlari to'g'risida mulohaza qilar ekan, Yusuf quyidagi to'rt mezonni ta'kidlaydi: u kuchli bir idrok sohibi, yuksak farosat egasi,

ezgulik nuriga to'liq ko'ngilli, ish yuritish ustasi bo'lmog'i kerak. Olim o'z fikrlarini asoslar ekan, quyidagi xislatga e'tibor beradi: shoh barcha ishlarda tajribali, yomonlikni darhol sezuvchi, oqillik bobida ibratli, zakovatli, ma'rifatga tashna, kichiklarga (yoshlarga) tayanuvchi, adolatparvar, sadoqat sifatining sohibi bo'lishi shart.

Asarda muallif vazir, harbiy qo'mondon, shohning davlat masalalari bo'yicha maslahatchisi (hojib), davlat elchilari, kotiblar, xazinachi, hatto soqiylar, bosh oshpazlar qanday bo'lishi kerakligi xususida batafsil yozadi.

"Aholi hukmdordan nimani kutadi? Hukmdorchi?", degan savollar ko'pincha uchraydigan masala ekanligini yoddan chiqarmaylik. Xususan, Yusuf Xos Hojib: "Xalq hukmdordan uch narsani kutadi", deydi. Bular: pulning qadrini ko'tarish; xalqqa xususiy mulk huquqini ta'minlovchi qonunlar chiqarish va yo'llarni o'g'rilardan saqlash. Shoh esa fuqarolardan: soliqni vaqtida to'lashni; chiqargan farmon, qonunlarini bajarishni hamda do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lishni talab qiladi, — deb yozadi. Olim fikricha, ma'rifatli shoh qudrat egasi bo'laman desa, uning o'ng qo'lida qilich (ya'ni kuchli qo'shin) bo'lsin, so'l qo'lida boylik va tilida shakardan-shirin so'z bo'lsin, deb ta'kidlaydi.

Yusuf Bolasog'unliy o'z asarini 1070-yili Qoraxoniylar xoni Tog'voch Bug'roxonga tortiq etadi. Xon adibni taqdirlab o'z saroyida Xos Hojiblik (saroyning xos noziri) lavozimini beradi. Shundan so'ng u Yusuf Ulug' Xos Hojib nomi bilan elgayurtga taniladi. Mehr va oriflik bilan turkiy tilda yozilgan bu asar ko'p tillarga o'girilgan hamda nafaqat Movarounnahrda, balki Eron, Xitoy, Hindiston va boshqa ellarda ham mashhur bo'lgan. U keyingi asrlarda g'arb mamlakatlari tillariga ham tarjima qilingan.

Yirik tarixchi olim va davlat arbobi Abu Ali at-Tusiy saljuqiy sultonlar Alp Arslon va Malikshoh davrida uzoq yillar bosh vazir bo'lib ishlagan. U saltanatda mahalliy tarqoqlikka barham berish, markaziy davlatni mustahkamlash, davlatning moliyaviy ishlarini tartibga solish uchun ko'p kuch sarflagan. At-Tusiy davlatning idora qilish masalalariga bag'ishlangan "Siyosatnoma" asarini 1092-yili yozib bitiradi. Saltanatda ko'pchilik muallifni Nizomulmulk, ya'ni davlatni idora qilish tartibining bilimdoni, deb atar edilar. Shu sababdan bu asarni yaratgan arbob

Nizomulmulk deb tarixga kirgan. "Siyosatnoma" 51 bobdan iborat bo'lib, unda markaziy davlat tuzilishi, uning moliyaviy hisob-kitob ishlari, qo'shinning tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartibi, qabul qilish marosimlari va ularni tayyorlash hamda o'tkazish, mansabdorlar faoliyati ustidan nazorat qilish kabi umumdavlat masalalari ko'rib chiqilgan. Asarda, shuningdek, somoniylar, qoraxoniylar va xorazmshohlarga oid ayrim ma'lumotlar mavjud. "Siyosatnoma" bir necha bor forsiyda, shuningdek, fransuzcha, ruscha, inglizcha va 1997-yili o'zbek tilida chop etilgan.

Tarixga nazar tashlasak ma'lum bo'ladiki, bunday mazmundagi asarlar bir qancha o'zga mamlakatlarda ham vujudga kelganligini ko'ramiz. Xususan, Rossiyada Yaroslav Mudriyning "Rus haqiqati", Mo'g'ulistonda Chingizxonning "Yaso"sida davlatchilikka oid muhim masalalar davr talabi va dunyoqarashidan kelib chiqib yoritilgan.

Saltanatni idora qilishda Amir Temur aniq va ravshan tamoyillarga ega bo'lgan va ularni ongli ravishda amalga oshirgan. Mashhur "Temur tuzuklari" mustaqillik yillarida keng targ'ib qilinayotgan bo'lsa-da, Sohibqironning bu nodir asaridan ayrim tamoyillarni keltirishga jazm qildik. E'tibor bering-a:

- podshoh bir so'zli bo'lishi va aytgan so'ziga amal qilishi, belgilangan har bir ishni bilib qilishi lozim;
- har bir ishda adolatpesha bo'lishi, atrofida ham shunday kishilarni tutishi zarur;
- ne ishnik i qilar bo'lsa, o'zi hukm chiqarsin;
- biror ishga qaror qilar ekan, qarorida qattiq tursin;
- uning amr-u farmoni barcha uchun vojib bo'lsin;
- podshohlik ishlarini biror boshqa kimsaga ishonib berib qo'ymas;
- ne ish qilmoqchi bo'lsa, boshqalar bilan kengashsin, lekin maslahatning foydalisini olsin;
- saltanat, raiyat va sipoh ishlarida yaxshi-yomon gaplar eshitsa, haqiqat deb ishonmasdan, mulohaza bilan o'zi hukm chiqarsin.

Sohibqiron bu tamoyillarni o'z tajribasida sinab ko'rib o'ziga shior qilib olgan edi. "Temur tuzuklari" davlat arbobining donoligidan, odamiyligidan dalolat beradi. U barpo etgan buyuk davlat uch zabardast asosda — diyonat, adolat va qattiqqo'l siyosat negizida qad ko'targan edi. Uning "Kuch — adolatda-

dir" iborasi bugun ham dolzarb shiordek jaranglaydi, insof va vijdon bilan ish tutishga chorlaydi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, Temur jamiyat taraqqiyoti mazmunini, uning obyektiv qonunlarini va bu qonunlarni harakatga keltirish mexanizmini yaxshi anglagan buyuk shaxs bo'lgan.

"Temur tuzuklari"ning inson jamiyati uchun muhimligini jahonning ko'pchilik yurt arboblari tan olgan. Asar turli davrlarda eski o'zbekchadan forsiyga, so'ng inglizchaga, fransuzchaga, ruschaga, hindu, urdu tillariga, so'ng arab, nemis, chex tillariga tarjima qilinib chop etilgan. XVII—XX asrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon hukmronlarining shaxsiy kutubxonalarida Temur tuzuklarini xattotlar mehr bilan ko'chirgan nusxalari mavjud bo'lganligi ham bejiz emas.

Davlatni to'g'ri idora qilish xususida, arboblarning fazilatlarini borasida Zahiriddin Boburning "Siyosiy vasiyatlarini", Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asari, Samandar Termiziyning "Podsholarga qo'llanma" kitobi, shuningdek, Muhammad Solihning "Shayboniyнома"si, Hofiz Tanishning "Abdullanoma"si, Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"sida boy ma'lumotlar mavjud.

Siyosiy arbob xususida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, siyosat mazmuni haqida ikki og'iz so'z. Arabchadan tarjima qilsak, bu so'z yurtni, jamoani tartibga solish san'ati ma'nosini bildiradi. Siyosat (politika) so'zi yunoncha davlatni idora qilish, degan tushunchani beradi. Abu Ali at-Tusiy o'zining "Siyosatnoma"sida bu so'zni saltanatni boshqarish, jamoa ishlarini tashkil qilish va tartibga solish mahorati, deb uqtiradi. XV asr mutafakkiri Xusayn Koshifiy siyosat yurtni tartibga soladi, agar siyosat bo'lmasa, davlat ishlariga xalal yetadi, degan. Qadim o'tmishda ham, hozir ham ko'pchilik manfaatini ko'zlovchi, yurt hamjihatligini ta'minlovchi odil siyosat, uning amalga oshirilishi kishilik jamiyati ravnaqining muhim omili bo'lib kelgan. Shunday siyosatni shakllantirish va hayotga tatbiq qilish ko'p jihatdan davlat arbobiga, uning qobiliyati va salohiyatiga, uning tevarak-atrofidagi kishilarning vijdoniga, insofliligiga bog'liq ekan.

Shu bilan birga, keyingi asrlarda siyosat xususida o'zga fikrlar ham bildirilmoqda. Ayrimlar siyosatni masalani o'z foydasiga hal qilish, o'z manfaatini ko'zlash yo'llari, hatto munofiqlik, qalbakilik deb ham ta'riflaydilar. Bunday mulohazalarda ham jon bor.



Lekin ko'p donishlar siyosatni ham ilm-u fan, ham san'at deb hisoblaydi. Darhaqiqat, siyosat asosida chuqur tahlil, ilm-u fanga suyangan mulohazalar bo'lmog'i zarur. Shu bilan birga siyosatni amalga oshirish jarayonida katta mahorat, san'at ham lozim. Shunday qilib, siyosat ko'p qirrali murakkab va mas'uliyatli faoliyat jabhasiga kiradi.

Bugungi kunda ko'p olimlar siyosatni avvalo rejali va tashkiliy ravishda hokimiyatni qo'lga kiritish, uni saqlab qolish (jamiyatni yoki jamoani) idora qilish borasidagi faoliyat, deb ta'riflaydilar. "Hokimiyat" so'zining ma'nosi esa amaldorning kishilarni o'z xohishiga va talabiga moyil qilish yoki ko'ndirish jarayonidir. Bu so'zning o'zagi hukm chiqaruvchi, qaror qabul qiluvchi mazmunini bildiradi. Demak, "siyosiy hokimiyat" iborasi ham keng mazmunga ega ekan.

Darvoqe, "imom" so'zini ruhoniylar boshlig'i, namoz o'qilishida birinchi qatorda turuvchi kishi ma'nosida tushunamiz. Arab tilini mukammal bilgan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida imomni boshliq, yetakchi, peshvoz turuvchi mazmunida ishlatadi. Bu ham bejiz bo'lmasa kerak.

Yana bir masala. Buyuk shaxslarning paydo bo'lishi tasodif emas. Albatta shu kishining shu hududda, shu davrda paydo bo'lishi tasodif bo'lishi mumkin. Lekin shu odamni xayolan chetlatsak, uning o'rniga vaqt o'tishi bilan boshqa odamning paydo bo'lishi tabiiydir. Masalan, agar Kolumb tug'ilmaganda, nahotki Amerika shu paytgacha ochilmagan bo'lardi? Mabodo Nyuton bo'lmaganda, odamzod shu paytgacha butun olam tortilish qonunidan bexabar bo'larmidi? Yoki Al-Xorazmiy "arab raqamlari"ni ishlab chiqmaganda hamon murakkab rim raqamlari iskanjasida bo'larmidik? Demak, tasodiflar to'dasidan zarurat o'ziga yo'l ochadi, keng maydonga chiqadi.

Tarixiy shaxslar qay sharoitda siyosat maydoniga chiqadi?

Shoir Maqsud Shayxzoda "Kishi tug'ilmas boshda toj bilan, tug'ilar erklikka ehtiyoj bilan", — deb yozgan edi. Yirik arboblarning mamlakatning ijtimoiy kuchlari, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning taqozosiga ko'ra, zamonaning o'rtaga qo'ygan dolzarb muammolariga muvofiq holda obyektiv sharoitda vujudga keldi. Masalan, Amir Temur shaxsining siyosiy maydonida paydo bo'lishi masalasiga nazar tashlaylik.

Akademik Ibrohim Mo'minov aytganidek, Temur shaxsining yuzaga kelishi davr, zamon taqozosi edi. U davlat arbobi

sifatida ma'lum darajada bu zaruriyatni o'zida aks ettirdi, ya'ni Movarounnahrni g'animlardan ozod qildi, bu yerda mustaqil markazlashgan davlat tuzdi, mamlakat ehtiyojlariga javob berdi. Demak, tarixiy voqealar, turli muammolar aniq bir holatda vujudga keladi, ularni hal qilish tarixiy ehtiyojdir. Shu bilan birga yirik shaxslar ma'lum bir aniq sharoitda katta ishlarni amalga oshiradilar, ularni muayyan bir yo'nalishga buradilar. Bu asosan ularning aql-u zakovatiga, shijoatiga, iste'dodiga bog'liq.

Prezidentimiz Islom Karimov bu masalada shunday degan edilar: "Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deydilar. Bunga qo'shimcha qilib Sohibqiron bobomiz suronli hayotini xayol ko'zgosidan o'tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin".

Shunday qilib, har bir siyosiy shaxs o'z zamonining ehtiyoji bilan va o'sha davr tarixiy vaziyatidan kelib chiqadi.

Ko'pchilikka ayonki, Amir Temur va Zahiriddin Bobur insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan, ijtimoiy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'targan va buyuk saltanatlarga asos solgan siymolar. Bunday yirik rahnamolar tarixda ahyon-ahyonda uchraydigan daholardir. Ular ko'p yaxshi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida siyosat maydonida yorqin yulduz bo'lganlar.

Bir misol. Tarixdan bilamizki Andijonda tug'ilib, Farg'ona hukmdori bo'lgan Zahiriddin Bobur taqdir taqozosi bilan 1525-yili Hindiston podshosi bo'ladi. Oradan besh yil o'tgach, u 47 yoshida vafot etadi. O'lim haqligini tan olgan Boburshoh vafotidan deyarli ikki yil oldin to'ng'ich o'g'li Xumoyunga vasiyat qilib shunday yozgan ekan: "Ey farzandim. Hindiston mamlakati turli mazhablardan tashkil topgan. Olloh taollo Sizga bu yurtni karomat etdi. Siz mazhablarni yomon ko'rishdan dilingizni pok tuting. Har mazhabning tariqasiga adolat qiling. Xususan, Hind elining qalbini qo'lga kiritaman, desangiz, sigirni qurbon qilishdan o'zingizni saqlang. Bu yaxshiligingiz evaziga aholining qalbi Sizga yaqin bo'ladi. Qo'lingiz ostidagi har qavm ibodatxonalarini va muqaddas joylarini xarob etmang. Shunday odillikni ixtiyor qilingki, podshoh raiyatdan, raiyat podshohdan xotirjam bo'lsin. Islomning taraqqiyoti zulm tig'i bilan emas, ehson tig'i bilan yaxshi bo'ladi. Sunniy va shialar o'rtasidagi janjallarga ko'zingizni yuming. Agar bunday qilma-

sangiz islom zaiflashishi mumkin. Turli e'tiqoddagi elatlarni teng tuting, toki ular uyg'un bo'lsin. Shunda saltanat har xil tashvishlardan xoli bo'ladi.

Bu siyosiy hujjatda yana bir muhim masala olg'a suriladi: hazrat Sohibqiron Amir Temurning ish yuritishlari doimo yodingizda bo'lsin. Shunda podshohlik ma'mur va puxta bo'ladi. Ushbu mulohazalarni Sizga yetkazish bizning burchimizdir", degan so'zlar bilan vasiyatnoma yakunlanadi va "Podshoh Bahodir G'oziy Zahiriddin Muhammad Bobur" deb naqshlangan muhr bosiladi. So'ng imzo bosiladi. Imzo chekilgan sana 1529-yil 11-yanvar ko'rsatilgan. Bu vasiyatnomaning asli hozirgi vaqtda Hindistonning Bhopal davlat kutubxonasi xazinasida saqlanmoqda.

Vasiyatnoma avvalo dono shohning valiahdga, diloro otaning sevimli farzandiga qalb qo'ri bilan bitilgan. Uning mazmuni esa yirik siyosiy arbobning yurt tinchligi, osoyishtaligi, rivoj topishi xususidagi eng muhim omillarini o'z ichiga olgan.

Bu hujjat ruhidan ko'rinib turibdiki, Bobur o'ta mas'uliyat va yuksak ma'naviy qudratga ega shaxs. Ul zot Hind elini, uning ko'p millatli xalqini, urf-odatlarini sidqidildan hurmat qilgan inson bo'lgan.

Boburiylar sulolasining Hindistonda 1525-yildan to 1857-yilgacha, ya'ni 332 yil hukmronlik qilganligi va u yerda yaxshi nom qoldirganligining ildizi sulola bosh bo'g'inining insoniyligida, donoligida bo'lsa kerak. Buni mustaqil Hindistonning bosh vaziri Javoharlal Neruning Bobur faoliyatiga yuksak baho berganligida ham ko'rishimiz mumkin. AQSH olimi Garold Lemb 1961-yilda Nyu Yorkda chop etilgan "Bobur-Yo'lbars" asarida "Bobur Hindistonda feodal parokandalikka barham berdi, diniy nizolarni daf etdi va buyuk imperiyaga asos soldi. Uning saltanati o'tmishga nisbatan kelajak istiqboliga peshkash edi",— deydi.

Boburning muhim fazilatlaridan yana biri o'z faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan mulohazada bo'lishidir. "Boburnoma"da bu muhim xislat o'z aksini to'la topgan. Yana bir misol. Bobur va Shayboniyxon doimiy raqib bo'lganligini tarixdan bilamiz. Shunga qaramasdan Bobur "Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishi ko'p narsani bilishidir", deb unga tan bergan. Bunday fazilatlar har kimga ham nasib etavermas ekan.

Yana bir holat. Davlat arbobining yaqin qarindoshlari oqi-

batini o'ylamay, o'z manfaatlari uchun intilib hukmdorni noqulay sharoitga tushurib qo'yishi mumkin ekan. Masalan, Xorazmshohning onasi Turkonxotin saltanat ishlariga tez-tez aralashib turar, ya'ni amaldorlarni tayinlashda lavozimga arzimas ham o'ziga ma'qul bo'lgan kishilarni qo'llab-quvvatlar edi.

Tarix dalolat beradiki, saltanat rahbariga xolis, odil maslahat berganlar ham kam bo'lmagan. Bunga yorqin misol Sohibqironning xotini mashhur Saroymulxonim - Bibixonimdir. Yoki Shohjahonning turmush o'rtog'i Mumtoz Bonu eriga dono va xolis maslahatchi bo'lganligi tarixda bor gap.

Otasining vafotidan so'ng Xiva taxtiga o'tirgan yosh Muhammad Rahimxon Feruz tez orada xushomadgo'ylar ta'sirida maishatga berilib, ichkilikbozlik qila boshlaganda tashvishga tushgan onasi qat'iyat bilan unga tanbeh berib: "O'g'lim, bunday qilish marhum otang xotirasiga, ajdodlarimiz nomiga isnodku", deydi. Yosh, tajribasiz xonning onasi tanbehidan to'g'ri xulosa chiqargani, saroyda nafosat suhbatlari uyushtirib, badiyatga mehr qo'ygani va oqibat elga muruvvatli xon va iste'dodli lirik shoir bo'lib yetishgani ham hayotiy haqiqat.

Tarixdan ma'lumki, ko'p siyosiy arboblarning odatda bamaslahat ish tutganlar, muammoni tushungan olimlar, shu soha mutaxassislari mulohazalarini inobatga olganlar. Ko'p yirik davlat arboblarning rasmiy va norasmiy maslahatchilari bo'lgan, ular o'zlarida boshqalar bilan fikr almashib, munozara qilishga ehtiyoj sezganlar. Masalan, Amir Temurning Said Baraka, Abu Bakr Toybodiy kabi pirlari bo'lgan. Ayni paytda Temur turli toifadagi kishilar bilan suhbatlar qurar edi.

Odatda, davlat arboblarning hurmat-u izzatda bo'lishi tabiiy hol. Ayni paytda, shaxs nafaqat hurmatli, balki boshqalarni hurmat qiluvchi ham bo'lmog'i darkor. Donishmandlar fikricha, amaldorlarning zarur xislatlaridan biri odamlar dardini anglamoq, arz-dod bilan keluvchilarga e'tibor qaratmoq, shikoyatlarini tinglamoq, ularga yordam bermoqdir. Davlat arbobi uchun eng muhimi quloq solishni va eshitishni bilmoq bo'lsa kerak.

Siyosatni yaxshi tushungan Alisher Navoiy: "Erursen shoh, agar ogohsen sen, agar ogohsen sen — shohsen sen", — deb yozgan edi. Ya'ni yurtboshi saltanatdagi vaziyatdan to'la xabardor bo'lmog'i lozim, u ahvolni bilgan holda mamlakatni to'g'ri idora qilishi mumkin, deydi buyuk shoir va davlat arbobi.

Uzoq tarix dalolat beradiki, ko'pincha buyuk hukmdorlar ramziylashtiriladi, ayrim hollarda hatto ilohiylashtirilgan ekan. Bu qay darajada haqiqatga yaqin? Bunday mulohazalarning vujudga kelish sabablari turli. Avvalo, odatda, arbob aql, insof va vijdon sohibi. Ko'pchilik aholi hokimiyatning muhimligi, murakkabligi xususida umumiy tushunchaga ega. Yurt osoyishtaligi ahamiyatidan kelib chiqib, tartibot zarurligini anglagan holda xalqimiz "Podshoh amri vojib", deb sidqidildan aytadi. Adabiyotda hukmronlarni ko'kka ko'tarish, ularni ko'pincha shunday fazilatlarga ega bo'lish orzusining ifodasi hamdir, deb o'ylayman. XX asrda paydo bo'lgan shaxsga sig'inish iborasiga kengroq qarash lozim bo'lsa kerak.

Demak, obro' siyosatchiga lavozim bilan kelmaydi. Amal arbobning nimaga qodirligini ko'rsatuvchi imkondir. Haqiqiy obro' shakllanishi uchun shaxsning hurmatga sazovor xislatlari, uning ish tashkil qilish salohiyati va qobiliyati mavjud bo'lmog'i darkor. Bu kabi fazilatlar siyosiy arbob nufuzining tarkibiy qismidir. Shaxsning obro'yi, nufuzi turli ijtimoiy kuchlarni birlashtirishga qodir va ko'pchilikni muhim ishlarga otlantiradi.

Arbob faoliyatida ana shunday xislatlarni xaloyiq sezadi, ularga tan beradi, ulug'laydi.

Tariximizni o'rganar ekanmiz kuchli yo'lboshchilar, qudratli hukmdorlar degan iboralarni uchratamiz. Kuchli shaxs deganda u yoki bu hukmdor lashkarlarining ko'pligi, to'p-zambaraklarning afzalligi emas, mamlakat hududining katta-kichikligi ham emas, balki arbobning tadbirkorligi, mulohazakorligi, ustomonligi, shijoati, katta irodaga egaligi inobatga olinadi.

Alisher Navoiy fikricha, davlat arbobi sharoitga qarab ish tutishi, joyi kelganda yumshoq, joyi kelganda qattiqqo'l bo'lishi lozim. Zero, yurtboshilar nafaqat dono, muruvvatli bo'lmog'i va shu bilan birga shijoatli, irodali, qat'iyat bilan o'z siyosatini amalga oshiradigan siymo bo'lmog'i lozim. Demak, qattiqqo'llik, talabchan siyosat tarixda o'zini oqlagan. Axir hokimiyat mo'rt bo'lishi g'ayritabiiy holku.

Insoniyat o'tmishi dalolat beradiki, kuchli, qudratli shaxslar tarixiy jarayonga katta ta'sir ko'rsatadi, jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga sharoit yaratadi. Ular o'z faoliyati jarayonida aql bovar qilmaydigan ishlarga jazm qiladi. Bu burilishlar, odatda, zamon taqozosi bilan yangi sharoitlarda dolzarb muammolarni hal qilishga qaratiladi. Bu hol shaxsning siyosiy ziyrakligidan,

ertangi kunni aniqroq ko'ra bilishidan, jamiyatdagi turli oqimlarning u yoki bu ishga naqadar qodirligini anglashidan, voqealar oqibatini tasavvur etishidan kelib chiqadi.

Donolar har bir tarixiy davr shu davrga yoki shu ijtimoiy taraqqiyotga xos bo'lgan xarakterni yaratadi, deganlar. Bu mulohazada jon bor, albatta. Shu bois ham har bir zamonning taraqqiyot qonunlarini e'tiborga olib, masalani beg'araz, xolis baholash muhimdir. O'tmishda hukmdor bo'lganlarning dunyoqarashi, tutgan siyosati, ma'naviyati turlicha bo'lgan. Ular o'z zamonining mahsuli, murakkab ichki ziddiyatlarga ega siymolardir. Ularning qalbida insoniy niyat-rejalari, orzu havaslari, o'z dardi va armoni bo'lgan, saltanat oshuftasi tuyg'ulariga ham berilgan kishilar. Demak, har bir shaxsning hayoti va faoliyati ichki qarama-qarshiliklaridan holi bo'lmagan.

Yana ta'kidlash lozimki, kuchli shaxslar insonning qanchalik ezgulik va qabihlikka qodir ekanini ko'rsatadi. Davlat arboblari har xil davr va sharoitlarda turlicha namoyon bo'lganlar. Shu bois ularni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin. Ular ijobiy, salbiy va ziddiyatli shaxslar.

Kuchli shaxslar siyosati va faoliyatini to'laroq anglamoq uchun avvalo o'sha davr taomillari, udumlar va hukmron mafkura xususiyatlarini eslaylik. Masalan, "Boburnoma"da davlatni idora qilishning o'sha zamondagi xususiyatlarini ifoda qiluvchi shunday mulohazalarni uchratamiz: mamlakat podshohsiz bo'lmas; o'n darvesh bir gilamga sig'adi, ammo ikki xoqon bir gilamga sig'maydi. Mirzo Boburning bu fikrlari bizni atroflicha mulohaza qilishga chorlaydi. Masalaga bunday qarash o'sha davrlarda G'arb mamlakatlarida ham ustun bo'lgan.

Xullas, o'tmishda iz qoldirgan arboblarning faoliyatini to'g'ri tushunishda inson tarixida yuzaga kelgan va dunyo xalqlari hayotida o'z o'rmini topgan mezonlarga tayanmoq lozim. Umuman moziyga bugungi kunning qonun-qoidalaridan kelib chiqib xulosa qilish yoki boshqa-boshqa davrlar udumlarini bir-biriga sun'iy ravishda ko'chirish noto'g'ri bo'lsa kerak. Voqealarga baho berishda ham barcha zamonlarga oid yagona andoza, mezon qo'llanilishi bizni haqiqatdan, xolis mulohazadan uzoqlashtiradi. Fikrimiz izohini Amir Temur shaxsi misolida ko'raylik. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida shunday deydi: "Amir Temur bir vaqtning o'zida o'z dushmanlariga ofat, o'z askarlariga qattiq qo'l rahbar, o'z xalqiga esa talabchan ota bo'lgan edi".

Akademik I. Mo'minov Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni haqida mulohaza yuritib shunday deydi: «Sohibqiron bir tomondan dushmanlarga qahr-u g'azabi kuchli, o'g'rilar, qarochilarga nisbatan o'ta shafqatsiz bo'lsa, ikkinchi tomondan, halol mehnatkash va sodiq sipohiy uchun muruvvatli, adolatli, yurt uchun ma'rifatparvar hukmdor bo'lgan». Olim bunday xulosaga kelishda Temur faoliyati tadqiqotchilarining mulohazalariga, xususan, arab tarixchilari — Ibn Xaldun va Ibn Arabshoh, ispaniyalik elchi de Klavixo, italiyalik tujjor B. Mignanelli, mo'jor professori X. Vamberri, nemis olimlari F. Shlosser, G. Veberlar fikrlarini ham hisobga olgan ko'rinadi.

Binobarin, o'tmishdagi yirik shaxslarga nisbatan bo'lgan mulohaza ziyraklik bilan, atroflicha tahlil asosida bo'lmog'i, o'sha davr odatlari, an'analari va qonun-qoidalari inobatga olinmog'i darkor ekan.

Turli sifatlarga ega yirik hukmdorlar faoliyatini tahlil qilar ekan, buyuk nemis shoiri Iogann Gyote ma'nodor ohangda: "Men donishmand oldida bosh egaman, qudratli kishi oldida tiz cho'kaman", — degan edi. Teran falsafiy mulohaza.

Qadimgi Rim faylasufi va davlat arbobi Senaka: "O'zini har qanday sharoitda eng munosib darajada tuta biladigan inson — hukmdorlarning hukmdoridir", — degan hikmatni aytgan edi.

Sharq donishlari ta'kidlaganidek, qudrat, kuchlilik — shafqatsizlik emas, balki odillik, tantilik, rahmdillikdir, degan mulohaza mavjudligini ham esda tutaylik.

XV asr donishmandlari nazarida podsho yaxshilarni himoya qilib, yomonlarni jilovlashi lozim. Yomonlar deganda xalqqa nohaq zulm o'tkazuvchi amaldorlar, qonun va shariatga xilof ish qilgan qozilar, firibgarlar, ortiqcha soliq undiruvchilar, o'g'rilar nazarda tutilgan.

Toj kiyib saltanatga mahliyo bo'lgan, hokimiyatga hirs, dunyoparastlik, bir-biri ustidan hukm o'tkazishga intilishlar ham tariximizda, afsuski, uchrab turadigan holat ekan.

Ayrim hukmdorlar o'z hududini kengaytirishga intilib qo'shni yurtlarga ot surganlar. Xususan, Buxoro amiri Nasrulloh 34 yil ichida Shahrisabzga deyarli 30 marta hujum uyushtirgan. Tabiiyki, bunday xatti-harakatlar katta xarajat talab qiladi va qo'shimcha soliq sifatida fuqarolarni nochor ahvolga solgan

ekan.

Odil hukmdor timsolini yaratar ekan Alisher Navoiy «shohlar darveshi-yu, darveshlar shohi» iborasini ishlatadi. Bu, albatta, tasodif emas edi.

Komil inson tushunchasi talqini bilan shug'ullanayotgan olim Najmiddin Komilovning yaqinda «Xizr chashmasi» asari chop etildi. Tushunamizki, bu yerda Xizr — Navoiy, chashma — shoirning teran va keng ijodi, faoliyati xususidagi kitob. Yuqo-rida keltirilgan iborani bobomiz bir necha asarlarida darvesh fazilatlari (butun borlig'ini o'zgalarga bag'ishlash, kamtarinlik, hamdardlik, hokisorlik va b.) bilan shoh xislatlarining uyg'un bo'lishini orzu qiladi, xayolan shoh va darvesh hikmatlarini o'zaro bog'lagisi keladi. Navoiyning bu keng ma'noli iborasi yuksak istak mahsuli bo'lsa kerak, deyishimiz mumkin.

Davlat arbobi lavozimi — bu katta va og'ir mas'uliyatdir. Bunday amal egasi imkoniyatlarini ishga solib yuksaklikka erishishi yoki yirik xatolarga yo'l qo'yib oxir tushkunlikka duchor bo'lishi mumkin. Zero, bu — qaltis amal. Xalq baxtiga rahnamolarning ezgu niyatlari ro'yobga chiqaversin, ular shaytonga aldanmasin. Cho'qqiga chiqqan odam yiqilib tushmasligi uchun muvozanat sirlarini anglamog'i lozim ekan. Buning uchun ul zot doimo ziyraklik bilan ongli harakatda bo'lmog'i darkor ekan.

O'lkamiz siyosiy arboblari hayoti, faoliyati bilan tanishar ekanmiz ayon bo'ladiki ularning ko'pchiligi:

— jamiyatni boshqarish (idora qilish) mexanizmini, uni harakatga keltiruvchi omillarni idrok eta olgan;

— ular odamlar ruhiyatini, fe'l-atvorini yaxshi bilishga intilgan;

— tashkilotchilik, kishilarni uyushtirish, safarbar qilish qobiliyati yuqori bo'lgan;

— odamlarning o'z so'ziga, taklif qilayotgan yo'liga, siyosatiga ishontira bilish mahoratiga ega bo'lganlar.

Zero, ko'pchilik davlat rahbarlari o'z salohiyatining ijtimoiy ahamiyatini anglab, tarixiy tajribani yaxshi bilib jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirganlar.

Yillar o'tib boryapti. Mustaqillikka erishganimizga ham o'n oltinchi yil ketyapti. Ma'lumki, bizga totalitar sovet tuzumidan og'ir meros qolgan edi. Shunday murakkab sharoitda muammo-



larni yaxshi tushungan, ishning ko'zini bilgan odamlarni muhim ishlarga otlantiruvchi, ruhlantiruvchi, birlashtiruvchi shijoatli rahnamo zarurati tug'iladi. Yurtimiz ahli Islom Karimovga katta umid va ishonch bildirdi, o'z taqdirini unga topshirdi.

1989—1990-yillardayoq u kishi xalq dardini anglagan holda markaz tazyiqiga qaramay mustaqil siyosat olib bora boshladi. Ma'lum sharoitlar yuzaga kelganda sergaklik bilan O'zbekistonni mustaqil respublika deb e'lon qilishning tashabbuskori bo'lib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning keng ko'lamdagi faoliyati N. Jo'rayevning "Agar ogoh sen" (1998), L. Levitinning "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" (2001), O. Sharofiddinovning "Mustaqillik me'mori" (2002), M. Sharifxo'jayev va F. Rahimovlarning "Davrni belgilab bergan inson" (2004) kabi asarlarida to'laroq yoritilgan.

Ma'lumki, shaxs doimo odamlar nigohida bo'ladi. Ular davlat arboblari turlicha qaragan, lekin hech qachon befarq bo'lmagan. Bugun ham yurtboshini yoki boshqa siyosiy rahbarni televizorda ko'rib, radioda eshitib, gazeta-jurnallarda yoritilgan uning faoliyatiga oid materiallarni o'qib, kishi ko'p narsaga e'tibor beradi. Tramvay, trolleybusda, avtobus yoki ishxo-nada, bozor-o'char qilganimizda yuqori mansabdorlar haqida ko'proq gapiramiz, ularning har bir so'zini, qilgan ishini ipidan-ignasigacha o'zimizcha tahlil qilishga urinamiz. Goh ko'klarga ko'taramiz, baraka topsin deymiz, goh norozi bo'lamiz. Tanqid qilamiz. Davlat arbobi hokimiyat tepasiga kelar ekan, bu sertashvish amalning ulkan mas'uliyatini zimmasiga oladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, har bir kishi yurtboshidan umidvor, shuning uchun ham u insonning dono fazilatlarini rahnamoda mujassamlanishini chin qalbidan istaydi.

O'tgan asr boshlarida rus olimi Nikolay Berdyayev davlat tuzishdan maqsad odamlarga jannat yaratib berish emas, balki mamlakatda do'zax bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, degan edi. Ya'ni davlatning asosiy vazifasi inson hayotining farovon bo'lishi uchun sharoit yaratib berishdir. Kishilar esa o'z baxtini o'z mehnati, tadbirkorligi, fahm-u farosati, peshona teri bilan yaratadi. Demak, davlatning asosiy burchi avvalo mamlakatda osoyishtalikni, barqarorlikni ta'minlashdir.

Yurtimiz tarixi dalolat beradiki, mamlakat tinchligi, uning ravnaqi xalqning davlat rahbariga bo'lgan ishonchiga, arbob

siyosatini tushunib qo'llab-quvvatlashiga, hamjihat bo'lib mehnat qilishiga ko'p darajada bog'liq.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'lmog'i xalqimiz orzusidir. Bundan ming yillar muqaddam yurtimiz donishmandi Al-Forobiy karomat qilib aytgan ekan: "Orzuga munosib ideal jamiyatni aholining barcha tabaqalari ishtirokida, ularning maqsad va manfaatlarini himoya qilgan holda, yetuk xislatlarni mujassamlashtirgan rahnamo boshchiligida yaratish mumkin".

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijtimoiy adolat tuzum g'oyasini shoh timsolida bayon qilgan edi. Shoir bu muammoni adolatli shoh – adolatli davlat – adolatli qonunlar – adolatli tartib sifatida tasvirlagan edi. Navoiy bir umr xalq va davlat arbobini o'zaro vafodorlikka chaqirgan shaxs. Faqat shundagina raiyat ham, rahnamo ham baxtiyor bo'lmog'i mumkin, – degan edi buyuk shoir.

Tarix va shaxs xususida yurgizilgan mulohazalardan asosiy mo'ljal yirik siymo bilan jamiyatning, ko'pchilik bilan shaxsning hamjihatligiga, yakdilligiga erishmoq zamon taqozosi, davr talabi, yurt farovonligining omili ekanligiga imon komil bo'lmog'idir. Dono xalqimiz qars ikki qo'ldan chiqadi, deganida teran ma'no mavjudligini yoddan chiqarmaylik.

Zero, o'tmishimiz dalolat beradiki, tarix g'ildiragini buyuk shaxslar, siymolar aylantiradi. Ayni paytda ular xalq faoliyatiga, uning qo'llab-quvvatlashiga tayanadilar. Demak, shaxslar ko'pchilik manfaatini inobatga olgandagina, ularga suyangan-dagina, ularni ergashtira olgandagina ezgu ishlar amalga oshadi, taraqqiyot jadallashib boradi.

### 3. MUNAVVAR O'TMISHIMIZ DA'VATLARI

Vatanimiz tarixini o'rganar ekanmiz, qanday fikr-mulohazalarga boramiz, ko'hna tariximiz bizni qanday xulosalarga, da'vatlarga chorlaydi?

1. Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi murakkab etnik-madaniy taraqqiyot chorrahasida joylashgan. Qadim davrdayoq bu yerda qiyofasi birmuncha farqlanuvchi, turli tarzda hayot kechiruvchi kishilar etnik jihatdan aralashgan holda yashaganlar. Tadqiqotchilar fikricha, bundan 4–5 ming yillar avval "bronza davri qabilalari O'rta Osiyodagi turli elatlarga asos solganlar". Bu qavmlar tub aholi (avtoxton) bo'lib, ularni so'g'diylar, xorazmiylar, baxtariylar, farg'onaliklar, shoshliklar, yarim chorvador qang'lilar, ko'chmanchi sak-massagetlar deb ataganlar. Keyingi asrlarda bu hududga qo'shni mintaqalardan kelgan turkiy va boshqa qavmlar ham tub joy aholi bilan qorishib ketgan. Keng mintaqada asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan o'troq aholi va cho'l-adirlarda ko'chmanchi chorvadorlar yashar edi. Asrlar davomida turli sabablar (asosan tabiiy ofat, tirikchilik tashvishi) bilan mintaqamizga uzoq-yaqin hududlardan yangidan-yangi qavm va elat vakillari ko'chib kelgan edi.

O'zbek xalqi o'zagini bundan deyarli uch ming yil muqaddam shu hududda yashab kelgan aholi tashkil qilgan. Tadqiqotchilarning aytishicha, bugungi o'zbeklarning tarkibida 90 dan ortiq qavm va qabilalar bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida o'sha davrdagi turkiy xalqlar lahja va shevalari to'kis yoritilgan. O'zbek tiliga asos bo'lmish qarluq-chig'il lahjasi X–XI asrlarda keng rivojlanib yozma adabiyot darajasiga ko'tarildi. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi ham kamol topdi. Masalan, "O'g'iznoma", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas" kabi dostonlar og'izdan-og'izga o'tib yurdi. Bu davrda xalq orasida qo'shiq janri keng tarqaldi, hatto "Ashulalar kitobi" yaratildi, cholg'u asboblari turlari ko'paydi, maqom-u ushshoqlar bastalandi. Xitoy manbalarida aytilishicha, Samarqand va Toshkentdan borgan raqqoslar Xitoy imperatori saroyida ham olqishlangan. 819-yili Movarounnahrda ilk bor shaxmat o'yini bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan bo'lib, unda buxorolik Abu Bakr as-Suli g'olib chiqqan ekan.

Islom Karimov o'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi)

masalasiga alohida e'tibor berib, "o'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon. U yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisida suv tashib bo'lsa ham, daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom ma'noda bunyodkordir. Unga birovning yeri kerak emas. Mabodo qo'lga qurol olguday bo'lsa, faqat o'zini himoya qilish uchungina oladi", — deydilar va "bizning ajdodlarimiz, xalqimiz qadim-qadimdan o'troq yashagan, millatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan", — deb asosli ravishda uqtirgan edilar.

Odatda, xalqning tarixi uning nomidan ilgari yuradi. Masalan, dunyodagi bir qancha xalqlar — inglizlar, fransuzlar, ruslar va boshqalar avval turli qabila nomlarida bo'lganlar va asrlar osha (xususan, milodiy VI—XIII asrlarda) hozirgi nomlarini olganlar. Turkiylarning bosh bo'g'ini bo'lgan o'zbeklar uch ming yillik tarixga ega bo'lsalar ham, hozirgi nomi XI asrda tilga olinadi va millat sifatida XVI asrdan boshlab shunday deb ataladigan bo'ldi. Prezidentimizning: "Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixning tag-tomirigacha nazar tashlaymiz", — degan so'zlarida teran ma'no mavjud.

Yana bir masala. Ta'kidlab o'tish joizki, qadimgi va o'rta asrlar davridagi tariximizga o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelgan tojiklar, qozoqlar, uyg'urlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar va boshqa elat ajdodlari daxldordirlar. Ular o'zaro inoqlikda hayot kechirganlar, hamdard va hamnafas bo'lganlar.

2. Ajdodlarimizning ilk davlatchiligi mil.av. ikkinchi ming yillikda Amu va Sirdaryo havzasi hududlarida o'troq aholi tomonidan shakllana boshladi. Bu davrda davlatchilikka oid siyosiy tuzilmalar, ijtimoiy munosabatlar va boshqaruv tizimining ko'rinishlari yuzaga kela boshladi. Dastlabki davlatlar xo'jalik va ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan sug'orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'lgan. Bu davrlarda tashqi harbiy bosqinchilardan himoyalaniish, manzilgohlar hududini mudofaa qilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini uyushtirish, jamoa tashqi va ichki aloqalarini boshqarib turish zarurati vujudga keldi. Uyushma boshliqlarining faoliyati asosan aholi hamjihatligini ta'minlash, muammolarini yechish, nizolarni bartaraf etish doirasida kechgan. Aholi o'rtasida mulkchilik va u bilan bog'liq bo'lgan mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish, mehnat taqsimoti jarayonlari davlatchilik shakllanishini tezlashtirdi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoda yozuv

madaniyati miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida paydo bo'lib, u moddiy va ma'naviy madaniyatning keyingi ravnaqiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining muhim omillaridan biri, yurtda siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lgan davlatchilik o'lkamizda uzoq asrlar davomida tashkil topib, u zamon taqozosiga ko'ra takomillashdi, murakkab tizimga aylanib bordi.

Yurtimiz tarixini o'rganar ekanmiz, yana bir nozik mulohazani inobatga olmoq darkor, deb o'ylayman. O'zbek davlatchiligi hozirgi mustaqil respublikamiz hududidan ancha keng bo'lgan. Turli davrlarda, uzoq yillar davomida yurtimizda tashkil topgan davlat sarhadlari doimo birdek bo'lgan emas. Masalan, Amur Temur Xurosonning Balh shahrida chaqirilgan qurultoyda yurtimiz hukmdori deb e'lon qilindi va u poytaxti Samarqand bo'lgan buyuk davlatni barpo etdi.

Biz haqli ravishda Alisher Navoiyni o'zbek tili va adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan bobokalonimiz deb ataymiz. Lekin bu zot hozirgi O'zbekiston hududida (Samarqandda) atigi uch yil yashagan va umrining ko'p qismi Xirotda, Astrobodda va Balxda o'tgan. O'zbek mumtoz adabiyotida yorqin iz qoldirgan Mavlono Lutfiy, Mavlono Atoiyalar ham, ulug' musavvir Kamolidin Behzod ham Xirotda tavallud topganlar. Sulton Husayn Boyqaro Xuroson ulusida rasmiy yozishmalarda turk-o'zbek tilini iste'molga kiritish borasida maxsus farmon chiqargani tarixda ma'lum. Farg'ona ulusi hokimi Umar shayx Mirzo, uning valiahdi yosh Zahiriddin Boburlarning yozgi qarorgohi O'shda bo'lganligini bilamiz. Zero, O'sh shahri Farg'ona ulusi tarkibida bo'lgan.

Bir vaqtlar Sibirda ham millatdoshlarimiz katta guruh bo'lib yashaganlar. Sibir xoni Ko'chim o'zbeklardan bo'lgan va u Buxoro shayboniylari bilan qarindosh edi. XVI asr oxirida bu xonlik yerlari Rossiya tomonidan «qo'shib» olinganligi ham bor gap.

XVII–XIX asrlardagi uch o'zbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo'qon) ham, hokimiyat tepasiga kelgan mang'it, qo'ng'iroq va mingurug' sulolalari yashab turgan sarhadlar ham hozirgi O'zbekiston hududiga to'la mos keladi, deb bo'lmaydi.

Bugungi kunda jahonda 27 milliondan ortiq o'zbeklar mavjud. Shundan deyarli 21 mln O'zbekiston Respublikasida

yashamoqda. 4 mlndan ortiq millatdoshlarimiz yaqin atrofimizdagi davlatlar hududida istiqomat qilmoqdalar, ularning ajdodlari bu yerlarda uzoq davrlardan beri yashab kelgan. Taxminan 2 mlnga yaqin o'zbeklar taqdir taqozosi bilan boshqa uzoq yurtlarga borib qolganlar va o'zlariga xos fazilatlarini tufayli u yerlarda el qatori yashab kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy haqiqat shundan iboratki, o'zbek davlatchiligi o'tmishda bugungi O'zbekiston chegaralaridan ancha katta bo'lgan. Lekin bu mulohazalarni aytishdan maqsad qo'shni yurtlarga da'vo ma'nosida emas, balki moziyda xalqimiz keng mintaqada yashab kelganligini, boshqa elatlar bilan totuv munosabatda bo'lganligini ta'kidlash xolos. Sovet tuzumi davrida milliy hududiy chegaralanishning shoshma-shosharlik bilan o'tkazilganligini ham yo'l-yo'lakay eslatib qo'ymoqchimiz. Balki bu atayin qilingan siyosatdir?

Yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston siyosiy mustaqillikka erishgan chog'idayoq bizning qo'shni respublikalarga hech qanday hududiy da'voimiz yo'q, deb baralla aytdilar. Bunday yondoshish mintaqada milliy nizolarning oldini olish, mahalliychilikka yo'l qo'ymaslik, siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan dono siyosatning mahsuli edi.

Istiqlolga erishgan Vatanimiz qomusi bo'lmish Konstitutsiyamizda "O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir" deb yozib qo'yilganligi qalbimizda ma'naviy qoniqish hissini uyg'otadi.

3. Tariximizdan ma'lumki, qadim zamonlarda ham odamlar birgalikda umumiy yumushlarni amalga oshirganlar. Bu xislat turli qavm, qabila, elat faoliyatida namoyon bo'lgan. Ularda bordi-keldi yuzaga kelgan. Natijada katta-kichik mintaqalarni o'zaro bog'lab turuvchi yo'llar paydo bo'ldi («Lojuvard yo'li», «Shoh yo'li»). Miloddan avvalgi III—II asrlarda keyinchalik Buyuk Ipak yo'li nomini olgan karvon yo'li yuzaga keldi. Bu yo'l Xitoydan tortib Markaziy Osiyo orqali Eron-u Mesopotamiya va Misrgacha, boshqa yo'nalishi Shimoliy Kavkaz, Vizantiyagacha cho'zilganligi ma'lum. Ipak yo'li uzoq asrlar davomida bir qancha qo'shni yurtlar xalqlarini iqtisodiy va madaniy jihatdan bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qildi. Xitoy imperatorining farg'onaliklar bilan ipak yo'lining bu yerda tashkil etilishi xususida bundan 22 asr muqaddam shartnoma tuzganligi ma'lum. Bu yo'l bir qancha tutash mamlakatlar iqtisodini

rivojlantirishda, savdo-sotiq va mol ayriboshlashda, madaniy aloqalarni o'rnatishda, elchilikni yo'lga qo'yishda muhim omil bo'lgan.

Ajdodlarimizga xos yana bir azaliy xususiyat bu bunyodkorlikdir. Bu fazilat kurtaklari aholining o'troqlasha boshlaganida va sug'orma dehqonchilikka o'tish jarayonida shakllana boshladi va so'ng kuchaydi. Uy-joy qurilishlari, boshqa qulayliklarni yaratish, umuman shaharsozlik, savdo yo'llari, turli rabotlar, karvonsaroylar, sug'orish inshootlari, ibodatxonalar barpo etish yurtimizda miloddan oldingi davrlardayoq vujudga kela boshlagan edi. Milodiy V asrga oid Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi hashamatli bo'lib me'morchilik san'atining yuksak namunasi bo'lgan. Ajdodlarimiz Axsikentda bundan 13–14 asr muqaddam tog' atrofidagi zilol suvlarni yer osti quvurlari orqali o'tkazib vodoprovod qurgan ekanlar.

Hududimizda X–XII asrlarga doir bizgacha yetib kelgan inshootlar binokorlik texnikasi va me'morchilik san'atiga e'tibor katta bo'lganligidan dalolatdir. Somoniylar daxmasi, Arab ota maqbarasi, Raboti Malik, Masjidi Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari, Xorazmdagi ichki va tashqi qal'alar va boshqa ajoyib me'morchilik yodgorliklari didli, farosatli ustalar qo'li bilan yaratilgan. Ayni paytda naqqoshlik san'ati keng rivojlangan edi.

O'rta asrlarda ko'pchilik hukmdorlar yirik qurilishlarga bevosita homiylik qilganlar. Ayniqsa, Amir Temur davrida o'lkamizning turli yerlarida, xususan, Samarqand, Buxoro, Kesh, Toshkent, Turkistonda hashamatli binolar, rabotlar, madrasalar, shifoxonalar, suv inshootlari, so'lim bog'lar barpo etildi. Olimlar ta'kidlashicha, o'sha paytdagi Samarqand me'morchiligi maktabida geometriya qoidalari asosiy o'rin tutgan.

Qadim zamonlardayoq Farg'ona va boshqa hududlarda hunarmandchilik rivoj topdi. Mintaqamizda ilk o'rta asrda oltmishdan ortiq hunarmandchilik turlari bo'lgan. Allomalari-mizning ko'plab kashfiyotlari ham yaratuvchilik timsolidir. Zero, yaratuvchanlik – salohiyatimiz ramzidir.

Bugun mustaqil yurtimizda ko'plab obodonchilik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik ishlari (masalan, metro qurilishi, zamonaviy avto va temir yo'llar, mustahkam ko'priklar barpo etilishi) ajdodlarimiz an'analoriga sodiqlik va uning qonuniy davomi desak o'rinli bo'ladi.

Ajdodlarimizning izlanuvchanligi, bunyodkorligi jahonga

ma'lum. Amir Temurning «Kuch-qudratimizga shubhangiz bo'lsa, biz qurgan binolarga boqing», deyishida teran mazmun bor, albatta.

4. Ma'lumki, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistan geografik jihatdan, iqlimi, tabiiy boyliklari bilan inson hayoti uchun qulay makonlardan biridir. Bunday sharoit tubjoy aholi uchun ma'qul va maqbul. Ammo o'lkamizni bu afzalliklari turli davrlarda Eron ahmoniylari bosqiniga, Iskandar Zulqarnayn harbiy yurishiga, arablar istilosi, mo'g'ullar bosqini va zulmi, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishiga olib keldi. Sho'rolar istibdodi xalqimiz boshiga og'ir kulfatlar keltirdi. O'zbeklar tabiatan mo'min, sabrli, keng fe'lli xalq. Ular og'ir qiyinchiliklarga bardosh berdi, mashaqqatli sinovlarni yengib o'tdi, o'z e'tiqodi mustahkamligini isbotlab keldi, yuksak ma'naviy mavqeini yo'qotmadi.

Xalqimizda Vatan tuyg'usi, kindik qoni to'kilgan zaminga muhabbat, uning istiqboli uchun qayg'urish, ravnaqi uchun kurashish, Vatan manfaati, shon-shuhrati uchun fidoiylik qilish xislatlari doimo ustun bo'lgan. Ajdodlarimiz bo'lmish malika To'maris, otboqar Shiroq, sarboz Spitamen, sarxang Muqanna, shahzoda Jaloliddin, hokim Temur Malik, imom Najmiddin Kubro, hunarmand Mahmud Tarobiy, sohibqiron Amir Temur jasoratlari asl fidoiylik, haqsevarlik timsolidir. Bu mashhur fidoiylarning g'animlarga qarshi qay yo'sinda kurash olib borib, nimalar evaziga g'olib chiqqanlarini yoshlarimiz anglashlari lozim.

Zulm, adolatsizlik, nohaqlik o'ta kuchaysa, xalqimiz sabr kosasi to'lib toshadi. XIV asrdagi Samarqand sarbadorlarining mo'g'ullar istibdodiga qarshi chiqishlari, XIX asr oxirlarida yuz bergan Rossiya imperiyasi siyosatiga qarshi Andijon va Toshkentdagi isyon, 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni bunga dalildir. 1917-yil kech kuzida Qo'qonda demokratik asosda tashkil topgan Turkiston muxtoriyatiga qarshi sho'rolarning qo'shin tortishi va uni shafqatsizlarcha tugatilishi, bolsheviklarning boshqa zo'ravonlik siyosati mahalliy xalq nafratini kuchaytirdi, bunday siyosatga qarshilik ko'rsatish harakatlari yuz berdi.

Uzoq tariximiz davomida ko'plab urushlar, qon to'kishlar bo'lib o'tgan. Lekin bu nizolar, janjallar millatchilik, etnik ayirmachilik asosida yuz bermagan. Qirg'inbarot urushlar, turli kelishmovchiliklar amaldorlar, siyosatdonlar, sulola boshliqlari



manfaatidan kelib chiqqan. Ayni paytda mintaqamizda turli turkiyzabon qabilalar, boshqa elatlar o'zaro murosa, totuvlik munosabatida bo'lganlar, qarindoshchilik rishtalarini bog'laganlar. Xalqimiz bunday munosabatni tabiiy holat, chin insoniy xislat deb anglagan. Shu bilan birga mintaqamizga ko'p asrlar davomida turli sabablar tufayli kirib kelgan boshqa xalqlar (ahmoniyalar, yunonlar, xitoyliklar, hindular, arablar, ruslar) madaniyati belgilari ham keskin ziddiyatda bo'lmagan. Tariximizda bu madaniyatlarning o'zaro uyg'un bo'lib bir-birovini boyitganligiga misollar ko'p. Milliy totuvlik, inoqlik, o'zgalar odatiga sabr-toqatli bo'lmoq qadim zamonlardan boshlab xalqimizda shakllanib kelgan.

5. Insoniyat tarixi dalolat beradiki, har bir millat, xalqni ulug'laydigan eng muhim omillardan biri — uning ichki ma'naviy-ruhiy salohiyatidir. Bag'rikenglik, tabiatga ehtirom, bunyodkorlik, tengqurlik, o'zgalarga insoniy hurmat, poklikka intilish kabi umuminsoniy fazilatlar o'zbeklarga xosdir.

Bunday xislatlar xalqimizda bir necha ming yillar davomida shakllanib kelmoqda. Bunga "Navro'z" va "Mehrjon" udumlari, muqaddas «Avesto» da'vatlari ishonchli dalildir. Qadimda ayollarning "Shodiyona kunlari" "Isfandarafro'z" deb atalgan va keng nishonlangan ekan. Demak, xalqimiz ma'naviyatining sarchashmalari qadim zamonlarga borib taqaladi. «Ekologiya» so'zi ma'nosini unchalik aniq bilmagan xalqimiz o'sha paytlardayoq tabiat muvozanati mohiyatini qalban chuqur anglagan va atrof-muhit sofliqi uchun qayg'urgan.

Xalqimizda azaldan diniy bag'rikenglik — tolerantlik mavjud bo'lgan. Masalan, ikki ming yil muqaddam Markaziy Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik, iudaizm, moniylik, shamanlik, nasroniylik va boshqa e'tiqodlarni tavof etuvchilar ma'lum bir murosada bo'lganlar. Samarqandda 510-yili xristianlar metropoliyasi bo'lgan, Buxoro va Toshkentda cherkov bo'lgani ma'lum.

Zero, sabr-toqat, o'zini er bilib, o'zgani sher bilib yashash tarzi xalqimizning yetakchi xislatlaridandir.

Arablar o'z hukmronligini ta'minlashda islom diniga tayandilar. Musulmonchilikning ko'p jihatdan afzalligi, ahloq va intizom nuqtayi nazaridan ommaviyligi mahalliy aholi o'rtasida uning keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Islom mohiyatiga yetgach, unga rag'bat va e'tiqod kuchaydi. Uning shariatlari yerli xalq udumlari bilan uzviy bog'landi. Soliq, maishiy hayot bobida,

zakot masalasida musulmonlik ahkamlari qoidalarini aholi qabul qildi. Ollah oldida barchaning tengligi esa dinning ahamiyatini kuchaytirdi. Bu jarayonda musulmonchilikning xalqparvarlik ruhi muhim ahamiyat kasb etdi.

Demak, islomiyatdan oldingi bir yarim ming yil davomida zardushtiylik, so'ng milodiy VIII asrdan boshlab qalbimizda jo bo'lgan islom madaniyati bizni poklikka, ezgulikka, halol yashashga, aql-u idrokka da'vat etib kelmoqda. Shu bois bu sifatlar xalqimizning buyuk ma'naviy boyligiga, uning ko'rkiga aylangan.

6. Tariximizda yorqin iz qoldirgan ulug'lardan biri Xoja Ahror Valiy 1404-yil bahorida Toshkent yaqinidagi Bog'iston qishlog'ida tug'ilib 86 yil umr ko'rganlar. U kishining otalari Xoja Mahmud Shoshiy va boshqa ajdodlari ma'rifatli inson bo'lganlar, ayni paytda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, tijorat sirlarini bilganlar. Xoja Ubaydulloh Toshkent madrasalarida dastlabki ilm olib, Samarqand, Chog'oniyon, Xirotda bilimni chuqurlashtiradi va Bahovuddin Naqshband ta'limotiga astoydil ixlos qo'yadi. Xoja fikricha, har bir odam o'zini-o'zi eplay bilishi, halol mehnati bilan tirikchilik qilishi va albatta, biror kasb bilan shug'ullanishi shart. Xoja Ahror Valiy katta mol-mulk sohibi bo'lsa ham boylikka berilib ketmagan, maldunyoni el-yurt manfaati uchun sarflashni vijdon burchi deb bilgan. Ul zot o'z umrini odamlarni ma'rifatli bo'lishiga va mazlumlarning og'irini yengillashtirishga qaratilgan xayrli ishlarni amalga oshirishga bag'ishladi. Hazrat Toshkentda, Samarqandda, Qobulda madrasalar qurdirdi, boshqa bir qancha joylarda ham masjid, hammom, ko'prik va boshqa inshootlar barpo etgan. Toshkent Chorusida Jome' masjidi va Shayxi Xovandi Toxur maqbarasi ham ul zot tashabbusi bilan yaratilgan. Dehqonchilik va tijoratdan kelgan daromadlarni madrasa, xonaqoh va sajdagoh xizmatchilarini moddiy jihatdan ta'minlash, muxtoj fuqarolarga xayr-ehson qilishga sarflab ma'naviy qoniqish xosil qilardi.

Xoja Ahror Valiy maqbarasidagi bitiklarda, xususan, shunday so'zlar mavjud: "U umri davomida hosili ziroatni ko'paytirdi, ko'p ne'matlarni oshkora va pinhona odamlarga berib keldi".

Mashhur shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy yirik mulkdor bo'lgan. Unga meros bo'lib qolgan mulkdan tushgan daromadning barchasini savob ishlarga sarflagan. Ulug' shoir yirik iste'dod egalari bo'lib yetishgan Kamoliddin Behzod,

Xondamir kabi o'nlab yoshlarga homiylik qilgan, ko'p nochorlarning boshini silagan. Navoiy Hirotda va boshqa yerlarda o'z mablag'iga hammom, shifoxona, madrasa, xonaqoh, robot, ko'prik, hovuz, kutubxonalar qurdirgan.

Tariximiz dalolat beradiki, o'lkamiz badavlat kishilarining ko'pchiligi islom ta'limotidan kelib chiqib xayr-u ehsonga moyil, beva-bechoralarning holidan xabar oluvchi, ayni paytda tejamkor, o'z ishini yaxshi biluvchi inson bo'lganlar. Odatda, madrasalar badavlat, ayni paytda ma'rifat qadrini bilgan kishilar tashabbusi bilan qurilgan va ko'pincha, ular nomi bilan yuritilgan. Xususan, Toshkentda bundan yuz-yuz ellik yil muqaddam ham Ko'kaldosh, Baroqxon, Yunusxon, Mahmud dasturxonchi, Xo'ja Ahmadboy, Abulqosim kabi 20 dan ortiq madrasalar ishlab turgan. O'lkamizda madrasalar (bu so'z aslida darsxona, tahsil olish joyi ma'nosida tushuniladi) kishilarning e'tiqodli, bilimli bo'lib yetishishida asosiy makon bo'lgan. Madrasalarda islomiyat shariat qoidalari, mantiq, falsafa o'rgatilgan. Ayrimlarida, shuningdek, kimyo, geografiya, tibbiyot, falakiyot, riyoziyot kabi fanlar bo'yicha ham darslar bo'lgan. Tariximizni sinchiklab o'rganar ekanmiz, ayon bo'ladiki imkoniyati bor kishilar hammom, shifoxona, ko'prik, masjid qurdirganlar, ariq qazib suv chiqarganlar, kishilar og'irini yengil qilishga intilganlar.

Yana bir misol. Bundan deyarli yuz yil muqaddam Abdulla Avloniy tashabbusi bilan Toshkentning Eski juvasida «Turon» kutubxonasi tashkil topgan edi. Bu maskan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'ulom Zafariy kabi ma'rifatparvarlar shaxsiy jamg'armalaridagi kitoblar hisobiga kengaya boradi, bugungi kunda ham minglab odamlarga xizmat qilmoqda. 2006-yili respublika nashriyotlari joylardagi ommaviy kutubxonalar uchun 89 million so'mdan ziyod miqdordagi mustaqillik yillarida chop etilgan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy, badiiy va bolalar adabiyotini xayriya qildilar.

Bunday sa'y-harakatlar xalqimiz qonida, zotida qadimdan mavjud. Bu bejiz emas. O'lkamizda asrlar davomida ishning ko'zini biladigan, iligi to'q odamlar talaygina bo'lgan. Bundaylar bugungi kunda ham kam emas. Xususan, tadbirkor-u ish-bilarmonlarning saxovati, himmati kundalik hayotimizda ko'proq namoyon bo'lishi insoniylik ramzi, xalqimiz ma'naviy qiyofasining ifodasidir. Shu boisdan ham Prezidentimiz 2006-yilni

Shifokorlar va homiylar yili, 2007-yilni Ijtimoiy himoya yili deb ataganlari o'rinli bo'ldi. Chunki, saxovatpeshalik xalqimiz mentalitetining timsolidir.

7. Poklikka intilish – xalqimizning azaliy fazilatlaridan biri. Bu yerda gap nafaqat ruhiy, ma'naviy yuksaklik xususida boryapti. Ayni paytda sog'lom turmush tarzi to'g'risida, jismonan baquvvat avlodlarni yetishtirish va barkamol etish xususidadir.

Muqaddas "Avesto", islom qadriyatlari, xalqimizning ko'p udumlari kishilarni sog'-salomat bo'lib o'sishiga qaratilgan. Giyohvandlik, ichkilik ichib mast bo'lish isnod, gunoh hisoblangan. Ajdodlarimiz bir umr jismoniy mehnatdan chetda bo'lmaganlar. Jismoniy chiniqishga qaratilgan turli musobaqa va bellashuvlar o'tkazish azaliy odat bo'lgan. Qadimshunos olimlar Surxondaryo viloyatida topgan bir qancha qoya – toshlarda odamlarning o'zaro kurashi manzarasi chizilgan ekan. Bunday topilmalar o'lkamizning boshqa hududlarida ham uchragan. Demak, kurash uch ming yildan buyon xalqimiz udumi bo'lib kelmoqda.

1247-yilda Xorazmda Pahlavon Mahmud ismli farzand dunyoga kelgan edi. U insoniy xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan ajoyib shoir va mutafakkir bo'lib yetishdi. Shu bilan birga ul zot o'zbek kurashini dunyoga targ'ib etganlardan biridir. Bu inson 40 yildan ortiq davrda keng mintaqada, xususan Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron va boshqa yurtlarda «yelkasi yerga tegmagan» polvon bo'lgan. Ayni paytda Pahlavon Mahmud sog'lom turmush tarzini targ'ib etib, nafsni tiya bilish muhimligini qayta-qayta ta'kidlagan. O'zi esa sakson yil umr ko'rgan. Darvoqe, oradan deyarli uch asr o'tib Alisher Navoiy xorazmli polvonga bag'ishlab maxsus asar yaratadi, uning hayotini o'ta ibratli deb hisoblaydi.

Bugungi kunda yurtboshimiz tashabbusi bilan o'zbek kurashi jahonga yuz tutdi, avlodlarimizni sog'lomlashtirish borasida, xususan, sport rivojida keng ko'lamli xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, bu tadbirlar ham xalqimiz an'alaridan kelib chiqadi.

8. Ruhiyatimizning yana bir ko'rinishi ma'rifatga, bilimga, ziyoga intilishda namoyon bo'ladi. Miloddan oldingi V–III asrlardayoq o'lkamizda bir necha imlododa yozuvlar mavjud bo'lgan, tasviriy san'atga e'tibor oshgan edi. Milodiy asrlar

boshida ham bu jarayon kengayib bordi. Masalan, So'g'diyonada o'g'il bola besh yoshga to'lganda yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular yigirma yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun bir necha yilga o'zga mamlakatlarga jo'natilar ekan. O'lkamizda tabiiy fanlarga, atrof-muhitni anglash, mavjudotni kengroq bilishga intilish kuchayadi. O'sha paytlarda so'g'd taqvimlari tuzilganligi, Xorazmda esa koinotni o'rganishga oid moslamalar ishlatilganligi haqida ma'lumotlar bor.

IX asrga kelib bilimga intilish kuchayadi. Buxoroda 890-yili "Savin-ul hikmat" deb atalgan yirik kutubxona yaratildi. Madrasalar o'lkamizning ko'p shaharlarida tashkil topadi, ular huzurida kutubxonalar paydo bo'ladi. Tadqiqotchi A. Semenov ta'kidlashicha, ular barcha iste'dodli va o'qimishli kishilarni o'ziga tortuvchi markazlar bo'lib qolgan edi. 937-yili ish boshlagan Forjak madrasasi professor Q. Bo'ronovning yozishicha, Buxoroda oliy o'quv yurti vazifasini bajargan. Unda diniy va dunyoviy bilimlar o'rganilgan. Uning talabalari esa keng mintaqaning turli shaharlaridan kelgan yoshlar bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek 1417-yilda Buxoroda qurdirgan madrasa peshtoqida "Bilimga intilish har bir musulima va muslimning burchidir", deb yozib qo'yilganligi purma'no kasb etadi. Yoki, XVII—XIX asrlardagi Hafiza Maryam, Jahon otin Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar otin kabi otinoyilarning ta'lim-tarbiya bobidagi saxovatli ishlarini eslaylik. XIX asrning birinchi yarmida Umarxon va Nodirabegimlar tashabbusi bilan Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga kelganligi ham ibratlidir. O'lkamizdagi beminnat jadidchilik harakatining mazmuni, avvalo, ma'rifatparvarlik, diniy bilimlarni dunyoviy ilmlar bilan uyg'un holda o'rganishga da'vat edi. Yuqorida zikr etilgan va shu kabi boshqa xislatlar o'zbeklar qonida, dilida, iymonida mustahkam o'rnashgan. Shu bilan birga bunday fazilatlar jahon xalqlari qadriyatlariga zid emas, balki ko'p jihatdan uyg'undir. Demak, biz azaldan ma'rifatga talpinuvchi xalqmiz.

Mintaqamizda uzoq asrlar davomida shakllangan ko'p tillilik madaniyatimizning muhim xususiyatlaridan biridir. O'rta asrlarda ming-minglab ziyolilar turkiy, forsiy va arab tillarini yaxshi bilganlar. Shu bilan birga donishmandlarimiz boshqa tillardan ham xabardor bo'lganlar. Masalan, Abu Rayhon Beruniy Evklidning "Negizlar"i va Ptolemeyning "Almagest" asarlarini, o'zi yaratgan "Usturlobiya" kitobini arabchadan qadimgi hind tili — sanskritga

tarjima qilganligi tarixdan ma'lum. Abu Nasr Forobiy o'ndan ortiq tillarni bilgan, u Bag'dodda yunon faylasuflari asarlari bo'yicha bo'lgan bahslarda bir necha tilda erkin so'zlashgan.

Fransuz, ingliz, rus, arab, fors, urdu va boshqa o'ndan ortiq tillarni yaxshi bilgan o'zbek shoiri Is'hoqxon Ibrat vatandoshlarini g'arb-u sharq tillarini o'rganishga da'vat etar ekan, u 1901-yili Namanganda olti tilli lug'at chop ettirdi. Shoir 1912-yili mavjud yozuvlar — lotin, yunon, arab, hind, xitoy va kirill yozuvlarining paydo bo'lishi xususida asar yozadi. Maqsad — yoshlarni bilimga da'vat etish bo'lgan. Said Alouddinxo'ja 1909-yili she'riy shaklda o'zbek, arab, tojik tillarida 8470 so'zli lug'at chop ettiradi.

Mashhur jadid M. Behbudiy 1913-yili "Oyna" jurnali sahifalarida yurtdoshlarimizni arab, rus, fransuz va boshqa tillarni bilishga chaqirdi. A. Cho'lpon 1934-yili ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning "Hamlet" asarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Donishmandlarimiz fikricha, til bilmoq taraqqiyot omilidir. Yurtimiz mustaqillikka erishgach Sharq va G'arb mamlakatlari tillarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Toshkentda Jahon tillari universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Sharqshunoslik instituti ochildi. Andijon chet tillari institutiga o'xshash Samarqandda ham shunday oliy o'quv yurti tashkil etildi. O'zbekistonning 8 boshqa universitetlarida xorijiy til va adabiyot o'rgatuvchi yangi fakultet va maxsus bo'limlar ochildi. Bundan tashqari barcha boshqa o'quv dargohlarida ham chet tillar erkin o'rganilmoqda. Vatanimizda turli tillarni o'rganish uchun avvallari bunchalik keng imkoniyat yaratilmagan edi. Endilikda O'zbekiston yuzdan ortiq mamlakatlar bilan muloqotda, ular tajribasi bilan tanishmoqda, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirmoqda. Bu jarayonda xalqimizning boshqa tillarni bilishi tabiiyki qo'l kelmoqda.

Keyingi yillarda yoshlarimizda ingliz, arab, nemis, fransuz, xitoy, yapon, hindu, koreys, fors, turk, ispan tillariga qiziqish o'sib bormoqda. Mingdan ortiq yigit-qizlarimizga "Umid", "Iste'dod" jamg'armalarining grantlari nasib etib, ular bir qancha yirik mamlakatlarda tahsil olmoqdalar.

9. Atroflicha yoritilgan tariximizdan ma'lumki, butun o'rta asr davrida o'tgan davlat arboblarning mutlaq ko'pchiligi ilmfan homiysi, o'zida o'qishga, mutolaa qilishga doimo ehtiyoj sezuvchi, tarixdan, adabiyotdan, san'atdan yaxshi xabardor, musiqani tushungan, she'riyatni qadriga yetgan, shaxmat sir-

larini bilgan, xullas dunyoqarashi keng va teran mulohazakor insonlar bo'lgan. Bunday holat o'tmishimizning o'ziga xos muhim belgilaridan biridir. Aniq faktlarga murojaat qilaylik. 849-yili Farg'onada tavallud topgan Ismoil Somoniy o'sha davr tarixchisi Narshaxiy iborasi bilan aytganda, "aqli, adolatli, shafqatli, fikr va tadbir egasi bo'lgan." Saroyda yirik kutubxona tashkil etilgan bo'lib, undan ko'p ziyolilar samarali foydalan-ganlar. Yoki, Xorazm hukmdori Abul Abbos ibn Ma'mun o'z vaziri Abulxusayn bilan birga ilm-fan markazi "Dorul-hikmat" — Xorazm akademiyasini tashkil qilgan. X—XII asrlarda madaniyatning qadriga yetgan kishilar ko'paydi. Xususan, devon boshliqlari (vazirlar) va hokimlarning ko'pchiligi 2—3 tilni mu-kammal bilgan farosatli kishilar bo'lgan.

Muhammad Otsiz o'z donoligi tufayli o'ttiz yil davomida Xorazmshohlar davlatiga asos soldi. Undan keyin taxtga o'tirgan Alovuddin Takash o'ttiz bir yil hukmron bo'lib, saltanatni yanada mustahkamladi, uning faoliyatidan aholi mamnun edi. Mo'g'ullar istibdodi tufayli vayron bo'lgan yurtimiz Temur va temuriylar davrida qayta tiklandi, iqtisod, madaniyat, ilm-fan sohalarida yangi marralarga erishdi.

Hayratlanarlisi shuki, davlat arbobidek sertashvish lavozim-ni bajargan holda bir qancha hukmdorlar yirik ilmiy ish olib borganlar va fanda o'zlarining mustaqil fikrlarini bayon etgan-lar. Davlat arboblari Ulug'bek, Navoiy, Bobur ilm — bu dunyodagi hayotni tartibga soluvchi omildir, deb hisoblaganlar.

Qirq yil Movarounnahrda shoh bo'lgan Mirzo Ulug'bek ayni paytda yangi madrasalar barpo etdi, mashhur Samarqand rasadxonasini qurdirdi, unda ilmiy ish olib borgan bir guruh yetuk olimlarga rahnamolik qildi. 1018 yulduz joylashuvi jad-valini aniq belgiladi. Uning fandagi jasoratini XV—XVI asr-lardayoq Avstriya, Italiya, Gollandiya, Angliya, Polsha olimlari yuksak baholagan edilar. Bu jadval shu qadar aniq yaratilgan-ki, undan bugun ham ma'rifatli dunyo bahramand bo'lmoqda.

"Boburnoma" o'ttizga yaqin fan sohaları bo'yicha aniq ilmiy ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi. Shu boisdan ham kitob o'sha paytlardayoq o'zbekchadan forscha, so'ng boshqa tillarga tarjima qilindi. Bobur asari Angliyada besh marta, Germaniya va Rossiyada to'rt marta, Fransiyada olti marta chop etildi. Shuningdek, bu nodir asar Gollandiyada, Ispaniyada, Turkiya, Yaponiyada va boshqa yurtlarda kitob bo'lib chiqqan.

XVII asr o'rtalarida yigirma yil Xiva xoni bo'lgan Abulg'oziy saltanatni mustahkamlash bilan birga o'zi tabib va tarixchi sifatida mashhur bo'lgan. Xususan, u "Insonga foydali narsalar" kitobining uch qismi dori-darmonlar tayyorlash, ularning xususiyatlari haqida va yakuniy to'rtinchi qismida jahon tibbiyotida mashhur bo'lgan zotlar fikrini bayon etgan. Xon tarixchi sifatida turkiy xalqlar shajarasi haqida ikki yirik asar yaratgan. Ularda O'rta Osiyo o'tmishiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bu asarlar 1726-yili fransuz va nemis tillarida, 1770-yili rus tilida, 1780-yili ingliz tilida chop etildi. Keyingi yillarda ham Abulg'oziyxon asarlari qayta-qayta nashr etilgan.

Muhammad Shayboniyxon yirik davlat arbobi, ma'rifatparvar hukmdor bo'lgan. U harbiy yurishlarida ham o'zi bilan maxsus aravalarda sayyor kutubxonasini olib yurgan. U bir necha tilni mukammal bilgan, arzigulik shoir va yaxshigina tarjimon ham bo'lgan. Mamlakatda majburiy ikki yillik o'quv tizimini joriy etadi, o'qish jarayonidagi barcha xarajatlarni O'rta Osiyo tarixida ilk bor davlat zimmasiga o'tkazadi, qisqa muddat ichida ko'plab madrasa qurdiradi.

Shayboniyxonning jiyani Ubaydulloxon keng ko'lamda chuqur ilm egasi sifatida tanilgan. U turk, fors, arab poyeziyasini yaxshi bilar, xattotlik va musiqa bilan ham shug'ullanar edi. Ayni paytda u talabchan xoqon bo'lib, asosan shariat qonunlariga tayangan.

Buxoro amiri Subxonqulixon ham saltanat ishlarini yaxshi bilgan. Shu bilan birga u fan, madaniyat, san'at va me'morchilik rivojiga alohida e'tibor bergan. Uning nodir kutubxonasi bo'lgan. Xon "Subhoniyy tibbiyoti bo'yicha davolash" asarini yozgan. 1697-yili Buxoroda maxsus tibbiyot bilim yurti binosini qurdiradi va uning samarali ish olib borishiga erishadi (uning qoshida shifoxona, dorixona va boshqa yordamchi xonalar, tibbiyotga oid asbob-uskunalar mavjud edi). Bilim yurtining barcha xarajatlari vaqfnomada ko'rsatilgan mablag' hisobiga bo'lgan. Xonning o'zi ham madrasa talabalariga tez-tez ma'ruzalar o'qib turgan. Xon, shuningdek, "ilmi-nujum" ga qiziqib "Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati" nomli kitob yozgan. Va nihoyat, Subxonqulixon "Nishoniyy" taxallusi bilan durustgina she'rlar bitgan. Keltirilgan misollardan ayonki tariximizda har jihatdan xabardor, ilmi rahnamolar ko'p bo'lgan.

Yaqinda Moskvada Konstantin Rijov rahbarligida bir guruh



tadqiqodchilar jahonning barcha monarxlari (yakka hokimlari) xususida qisqa bo'lsada ma'lumot to'plab, bir necha jildlik asar nashr qildilar. Xususan, 2004-yili "Veche" nashriyotida chop etilgan "XV–XX asrlarda o'tgan sharqning musulmon sulolalari" jildiga e'tibor beraylik. Bu qiziqarli to'plamda tilga olingan va mavzuumizga oid joylaridan bir necha misol keltirishni lozim ko'rdik.

Buxoro hukmdori bo'lgan Abdullaxon (XVI asrning ikkinchi yarmi) qattiqqo'l siyosatchi, harbiy sohaning sirlarini bilib, mamlakat hududini kengaytirgan shaxs. U deyarli qirq yil davomida bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Uning tashabbusi bilan ko'plab masjid, madrasa, xonaqoh, rabotlar, ko'prik, suv omborlari, to'g'onlar qurilgan. Mamlakatda hunarmandchilik, ziroatchilik rivoj topgan. Ayni paytda xon ma'rifatparvar bo'lgan, olim, shoirlar bilan ko'plab suhbatlar olib borib, o'zida ma'naviy qoniqish hosil qilgan.

Hukmdorlar o'z fe'l-atvori, xarakteri bilan ko'pincha biri ikkinchisiga o'xshamagan. Buxoro amiri Shohmurod nihoyatda kamsuqum, soddadil bo'lgan. U kamtarligi bilan ko'pchilikni hayratga solgan. Amir hech kimdan sovg'a olmagan, bironing topganiga ta'magir bo'lmagan. U dunyo farog'atlaridan kechib, fuqarolar ahvolini yaxshilashga, hunarmandchilikka, obodonchilikka, kishilarga turli qulayliklar yaratishga astoydil intilgan. Uning fikricha, boshqarmoq – hukmdorlik qilish emas, balki hayot oldidagi majburiyatlarni bajarmoqlikdir. Ayni paytda adolat muammosi bilan qiziqib "Hikmatlar manbai" asarini ixlos bilan yozgan.

Xiva xoni Muhammad Rahim arbob sifatida parchalanib ketgan xonlikni tikladi, mamlakatda tartib o'rnatdi. U soliq tizimini takomillashtirdi, bojxona tashkil qildi, pul zarb etishni qattiq nazoratga oldi. U saltanatda oliy kengash ta'sis etdi, davlat xizmatida bo'lganlarning o'zboshimchaligiga chek qo'ydi.

K. Rijkov to'plamida mintaqamizning bir qancha boshqa hukmdorlari haqida, xususan, Imomqulixon, Shohruxbiy, Norbo'tabek va boshqa arboblar xususida ham ma'lumotlar mavjud va ularni kitobxon xolis qabul qiladi, degan umid-damiz.

Ko'rib turibmizki, tariximizda siyosiy arboblar qiyofasi turlicha bo'lgan va ular imkon boricha o'z burchlarini bajarishga

intilganlar. Ko'p Sharq-u G'arb mamlakatlarida yurt rivoji, taraqqiyoti ko'p jihatdan davlat arbobi shaxsiga, uning fazilatlariga bog'liq, degan mulohaza ustun turadi. Bu degani turli davr hukmdorlarini maqtab ko'kka ko'tarish yoki qoralash emas, albatta. Buni ziyrak o'quvchilarimiz yaxshi his qilsalar kerak.

Inson tarixning shonli va fojiali sahifalarini o'rganar ekan, odatda u o'tmishdagi ijobiy ishlarga ko'proq e'tibor beradi, yuksalish omillarini o'rganishga harakat qiladi, tanazzulga yuz tutish sabablarini tahlil etadi va baholi qudrat xulosalar chiqaradi. Kundalik hayotda ham, har bir elat, millat, xalq o'z farzandlarining kamchiliklarini emas, balki fazilatlarini o'zida jamlaydi va el-yurtga, dunyoga namoyon qilishga intiladi. Bu yaxshi udum to'g'risida teranroq o'ylab ko'rish zarurati bo'lsa kerak. Chunki besh qo'l barobar emas.

Kamchiliksiz kishi bo'lmasa kerak. Qandaydir qusur, ayb u yoki bu darajada barchamizda mavjud. Zero, har bir insonning o'ziga yarasha afzalliklari ham, nuqsonlari ham bor. Shu nuqtayi nazardan masalaga qarasaq tariximizdagi yirik amaldorlarning talaygina qismi ziddiyatli bo'lganligini bilamiz. Ayni paytda ular jamiyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shganlar. Bunday holatda shaxsning xato-kamchiliklari qanday sharoitda yuz berganligi, bu nuqsonlar tasodifan, beixtiyor bo'lganmi, yoki atayin, qasddan qilinganmi, degan jumboq javobsiz qolmasligi kerak. Mamlakatimizni mo'g'ullar asoratiga tushishida o'ziga ortiqcha bino qo'yib, o'zgalarni mensimay, qaysarlik, o'jarlik qilgan Muhammad Xorazmshohning qiliqlari ham sabab bo'lgan bo'lsa kerak. O'tror voqeasini eslaylik, axir.

Moziy guvohlik beradiki, amaldorlar orasida vazifasini suiite'mol qilganlar, aysh-u ishratga berilib yurt farovonligini unutganlar ham bo'lgan. Ayrim hollarda hokimiyat uchun kurash murosasiz kechgan, vorislik qoidalari ko'pincha buzilgan. Taxtga da'vogarlar o'rtasidagi nizo, qon to'kishlar bilan hal bo'lganligi, sulolaviy kurashlar shafqatsizlik bilan olib borilganligi ham tariximizda uchraydi. Bunday qabohatlar, manfur voqealar natijasida mamlakatda siyosiy barqarorlik yo'qolgan. Bularning kelib chiqishida, odatda, laganbardor-xushomadgo'ylar, shaxsiy xusumatga borganlar, amalparastlar, fitnachilar salbiy rol o'ynaganligini unutmaylik.

Nafaqat o'zga yurtlarda, balki o'z o'lkamizda ham amal

talashib o'g'il otaga, ota farzandiga qasd qilib qon to'kishdek dahshatlar ham, afsuski, bo'lib o'tgan ekan.

Uzoq davrlar mobaynida Turon, Movarounnahr, Turkiston deb atalgan yaxlit makon XVI–XVIII asrlarda katta yer, mulk egalarning o'zaro kurashi, amaldorlarning xudbinligi oqibatida uch xonliklarga bo'linib ketdi. Mintaqamizda siyosiy parokandalik, hokimiyat uchun kurash, sulolalararo nizo va besamar urushlar yuz berdi. O'lkamiz umuminsoniy taraqqiyot yo'lidan uzoqlashdi, xalqaro nufuzi pasaydi. Bunday achinarli vaziyat hududimizga yangi begonalarining – Rossiya imperiyasining bostirib kelishiga imkon berdi.

Darvoqe, qadimgi asrlarda ham yurtimizga kelgan turli bosqinchilar (ahmoniyalar, yunonlar, arablar, mo'g'ullar va b.) qo'lining ko'p hollarda ustun kelishiga o'sha davrlarda mavjud bo'lgan noahillik, tarqoqlik sabab edi. Bunday noxush holatlar, odatda, amaldorlarning shaxsiy manfaatlari, ularning xudbinligidan kelib chiqar edi. Holbuki, O'rta Osiyo xalqlari bir zaminning fuqarolari, ularning dini, madaniyati bir, tarixi o'zaro chambarchas bog'langan. Demak, tariximizning yana bir muhim sabog'i mintaqa ahlining hamjihatligi, amaldorlarning ginaxon bo'lmasligi, kek saqlamasligidadir.

10. Jafokash o'zbek xalqining bag'ri kengligi, tantiligi va sabr-toqatliligi mustabid sho'rolar davrida ham o'zgarmadi, saqlanib qoldi. Sovetlarning qatag'onlik siyosati davrlarida ham xalqimiz hurriyatga, mustaqillikka erishish niyatidan umidvor bo'lgan. O'zbekistonda faqat 1937–1953-yillarda deyarli 100 ming kishi quvg'inda bo'ldi, surgun qilindi, qamaldi. 13 ming fidoiy yurtdoshlarimiz sho'rolar tomonidan qatl etildi. Ular shahid ketdilar, kafansiz ko'mildilar. Shunga qaramasdan ota-bobolarimiz odamiylik, insoniylik fazilatlarini yo'qotganlari yo'q.

Ikkinchi jahon urushining ayanchli yillarida nochor qolgan Ukraina, Belorussiya va Rossiyaning g'arbiy hududlaridagi bir millionga yaqin kishilar O'zbekistonda boshpana topdi. Keltirilgan ikki yuz ming yetim va g'arib bolalarni xalqimiz o'z bag'riga bosdi va muruvvat ko'rsatdi. G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan", "Men yahudiyman" asarlarini eslaylik. O'sha paytlarda siyosiy qatag'onga uchragan Volga bo'yi, Qrim, Kavkaz, Uzoq Sharq hududlarida istiqomat qilayotgan bir necha yuz ming qrim tatarlari, mesxeti turklari, chechenlar, ingushlar, kurdlar, nemislar, koreyslar va boshqa majburan ko'chib

keltirilganlar (siyosiy adabiyotda ularni "deportatsiya etilganlar" deyiladi) ham diyorimizda boshpana topdi. Ularga o'zbeklar himmat ko'rsatdi, hamdard bo'ldi. Bu darbadarlar xalqimizning yuksak insonparvarlik fazilatlarini, samimiyligini amalda, kundalik hayotda ko'rdilar va tan berdilar. Urush yillarida O'zbekistonda yashagan mashhur Anna Axmatova: "Men ilk bor rahmdillik, mehribonlik mohiyatini Toshkentda anglaganman", deb yozgan edi.

Toshkentda o'n yildan ko'proq yashab ketgan (u hozir Germaniyada istiqomat qiladi) professor L. Levitin o'zining Moskvada chop etilgan "O'zbekiston tarixiy burilish pallasida" kitobida ta'kidlaganidek, o'zbeklar milliy tabiatining eng muhim qirrasini bu jamoaviylik, ya'ni jamoaga xoslik belgisidir. Bu xislat ijtimoiy hayotning barcha pog'onalari va hamma sohalarida namoyon bo'ladi. Maishiy turmush va ishlab chiqarishda, iqtisodiyot va siyosatda odamlar o'zaro ko'z ilg'amas norasmiy rishtalar bilan chambarchas bog'langanlar. Ijtimoiy hamjihatlik va jamoaga uyushib mehnat qilishning bir shakli bo'lmish hashar aynan o'zbeklarda paydo bo'lgan va rivojlangan. O'tmishda, yuz, ikki yuz, besh yuz yil avval bo'lganidek, hozir ham odamlarning birgalikda uylar, yo'llar qurilishi, ariq va zovurlar qazishi hashar deyiladi.

O'zbek hech qachon o'z qo'shnisini kulfatda yolg'izlatib qo'ymaydi. O'zbeklar yordam so'rab kelgan biron zotni kulfatda qoldirmaydi. Ularning insoniy tabiati ana shunday.

Ko'pchilik o'zbeklarga xos xususiyat — shaxsan o'zlari uchun yashash va hayotda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini g'ayrat bilan izlashdir. Ular amaliy ishni yaxshi ko'radilar, tomoshabinlikni emas, balki faol hayot kechirishni afzal biladilar, ular intizomlilik, ko'zlagan ishini muvaffaqiyatli yakunlash umidida uncha-muncha nochorlikka bardosh beradilar, deb ta'kidlaydi L. Levitin o'z asarida. O'zbekiston xalqi ruhiyatini e'tibor bilan kuzatib borgan bu olimning fikrlari samimiy, chin yurakdan chiqqan, deb o'ylayman. O'zbekistonda bag'rikenglik, tinchlik barqarorlikning omili ekanligi 2007-yil 13-martida o'tkazilgan xorijiy mamlakatlarning Toshkentdagi diplomatiya vakolatxonalari hamda xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari rahbarlari o'tkazgan "Davra suhbatida" ham ta'kidlanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov iborasi bilan aytganda, "Bizning xalqimiz o'zining voqealarga boy ko'p ming yillik tarixi

davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi. Madaniyat, ilm-fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yini ham, omonsiz jang-u jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizni insoniylik tabiatiga dog' tushira olmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlashgandir".

11. Jahon tarixidan bilamizki, o'tgan asr o'rtalarida davlatlar o'rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko'maklashish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshida maxsus uyushma tuzilgan edi va bu tashkilotning qisqartirilgan rasmiy nomi YUNESKO deb atalgan edi. Bu dargoh jahonning ko'p yurtlarida savobli ishlar olib borayotganini o'quvchilarimiz biladi. Xususan, 1995-yil noyabrida YUNESKOning Bosh konferensiyasi "Tolerantlik tamoyillarining bayonoti"ni qabul qilgan edi. Bu xalqaro hujjatda O'zbekistondagi bag'rikenglik qadriyatlari ham inobatga olingan. O'tmishimizdagi ibratli ishlar, ayniqsa ilm-fan, madaniyat, san'at sohalaridagi yutuqlarni YUNESKO o'rgandi va xalqaro miqyosda targ'ib eta boshladi. Masalan, bu tashkilot rahnamoligida 6 jildli «Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixi» yaratilmoqda. Uni tayyorlashda mamlakatimiz olimlari ham faol qatnashmoqdalar. Asarning dastlabki 4 jildi nashrdan chiqdi. YUNESKO Buyuk Ipak yo'lining o'tmishda xalqaro madaniy va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini e'tiborga olib «Ipak yo'li – muloqot yo'li» dasturini e'lon qildi. Bu dastur bo'yicha mintaqamizda bir nechta ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilindi.

YUNESKO da'vati bilan va uning doirasida Abu Rayhon Beruniy (1973-y.), Abu Ali Ibn Sino (1980-y.) tavalludlarining ming yilligi tantanali ravishda o'tkazildi. 1983-yili Muhammad al-Xorazmiyning, 1998-yili Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi, 1994-yili Mirzo Ulug'bekning 600 yillik yubileylari keng nishonlandi. 1996-yili Amir Temur yili bo'lib, YUNESKOning bosh qarorgohi Parijda «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» mavzuida ilmiy konferensiya va maxsus ko'rgazma tashkil etildi. Bu nufuzli dargoh tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy va At-Termiziy yubileylari, shuningdek,

«Avesto» kitobining 2700 yilligi, «Alpomish» xalq dostonining ming yilligi nishonlandi.

YUNESKO rahnamoligida Samarqandda «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, Surxondaryoning Boysunida folklor festivali o'tkazilib kelinmoqda. Bu yerdagi «Shalola» va «Shirushakar» folklor-etnografik ansambllari 2000-yili YUNESKOning Umumjahon nomoddiy yodgorliklar ro'yxatiga kiritildi. Xorazmda ming yil muqaddam tashkil topgan Ma'mun akademiya-sining yubileyi ham shu nufuzli tashkilot homiyligida keng ko'lamda o'tdi.

Ta'kidlash joizki, YUNESKO O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirilishida ham bevosita yordam ko'rsatmoqda. Xususan, bir qator oliy o'quv yurtlarida maxsus kafedralar, shuningdek, YUNESKO maktablari tashkil etilgan.

Bu xalqaro tashkilot da'vati bilan keyingi 40 yil ichida qadimiy yurtimizning mashhur shaharlari yubileylari o'tkazildi. Bu tantanalar o'lkamizning qadimiyligi, sivilizatsiya paydo bo'lgan markazlardan biri ekanligiga ishonchli dalildir. Yana shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston rahbariyati YUNESKO tashabbuslariga ijobiy qarab, uning faoliyatini keng ko'lamda qo'llab kelmoqda. Ayni paytda YUNESKO rahbariyati mamlakatimiz o'tmishiga, uning donishlariga, xalqiga ehtirom bilan qarab kelmoqda.

Zero, tarix — bu faqat sanalar, hodisalar emas, u avvalo, o'z faoliyati bilan insoniyat xotirasida o'chmas iz qoldirgan ajdodlar haqidagi fandır, desak to'g'ri bo'ladi.

\* \* \*

Umumiy xulosa shundan iboratki, xalqimiz tarixi, osor-u obidalari, ma'naviy boyligi, yuksak ruhiy qiyofasi bizda mamnuniyat hissini uyg'otadi, g'urur bag'ishlaydi. Lekin g'ururning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Avvalo bunday tuyg'u manmanlikka, kibrga, boshqalarni mensimaslikka olib bormasligi lozim. Vatan tarixi bizga ajdodlarimiz yaratgan, asrlar davomida peshlangan fazilatlarining qadriga yetishga, ularni e'zozlashga, yanada takomillashtirishga, shunday yuksak xislatlarga doimo munosib bo'lishga chaqiradi. Buning uchun astoydil ter to'kmoq, xalqimiz merosidan ibratli xulosalar chiqarmoq va tegishli saboqlar olmoq zarurligidan dalolat beradi.

Demak, xalqimizning qadimiy va boy tarixi milliy istiqlol mafkurasi mazmunini belgilaydigan asoslardan biridir. Tarix – bu buyuk murabbiy, insonga ibratli xulosalar beradi, achchiq saboqlarni anglashga undaydi, kelajakka komil ishonch bilan qarashga da'vat etadi.

#### 4. JAHON ILM-FANI RIVOJIGA MUNOSIB HISSA

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi tarixlarning eng qadimiysi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir" deb yozgan edi. Insoniyat bu dunyoga kelibdiki, avvalo, tirikchilik bilan band, u yaratuvchanlikka intiladi, qulayliklar qidiradi, o'ylab topadi, takomillashtiradi. Shu alfoz taraqqiyot vujudga kela boshlaydi. Keyingi avlodlar atrof-muhitni kuzatish, mushohada qilishni davom ettiradi. U yanglishadi ham, xatolar sababini axtaradi, ajdodlar tajribasiga, mulohazalariga tayanadi, ular kashfiyotlaridan foydalanadi, yangi cho'qqilarni ko'zlaydi, ajdodlardan o'tib bir daraja bo'lsa ham olg'a qadam qo'yishga harakat qiladi. Bu uzluksiz jarayon ekan. Insoniyat tarixi dalolat beradiki, yer kurrasining turli mintaqalarida donishmandlar o'zlaridan oldin yaratilgan ilmiy-madaniy merosni e'tibor bilan o'rganganlar, tanqidiy tahlildan o'tkazganlar, ularga tayanib yangi kashfiyotlar yaratganlar. Shubha yo'qki, insoniyatning bugungi ilmiy parvozida qadimgi allomalar xizmati benihoya kattadir. Mustaqillik yillarida tadqiqotchilarimiz — tarixchilar, faylasuflar, adabiyotshunoslar katta ishga jazm qildilar, ular "Avesto"ni qunt bilan qayta o'rganib, tahlil qildilar, uning yangi qirralarini ochib berishga erishdilar. Xususan, bu muqaddas kitobda matematika, astronomiya, tibbiyot, jo'g'rofiya, mineralogiya haqida jiddiy mulohazalar mavjud ekan. Bu hol o'sha paytlarda va keyingi asrlarda katta mintaqada ilm-fan rivojining bir o'zagi bo'lganligiga muqaddas kitob dalolatdir, desak o'rinli bo'ladi.

Tariximizga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan oq moddiy va madaniy taraqqiyot kurtaklari vujudga kelib, o'sib-unib borganligini ko'ramiz. Ajdodlarimiz bundan 2,5—3 ming yil muqaddam uzunligi 60—70 kilometr, eni 30—40 metrli kanallarni yaratishda, to'g'on qurib, suv sathini ko'tarishda, me'morchilikda, shaharsozlikda hisob-kitobni yaxshi bilganlar. Ular geometriya, simmetriya, muvozanat so'zlari bilan tanish bo'lmasalar ham, ularning mazmun-mohiyatini idrok etganlar va amalda mohirona qo'llaganlar. Milodiy yuz yilliklar boshlarida mintaqamizning turli hududlarida moddiy va madaniy taraqqiyot davom etgan.

Lekin milodiy VII, qisman VIII asrlarda keng mintaqada ma'muriy parokandaliklar ro'y berdi, aholi notinchliklarga duch keldi. Natijada madaniy-ma'naviy qadriyatlarga putur yeti



boshladi. Oqibatda mahalliy aholi VIII asr boshlarida arab bosqiniga duchor bo'ldi.

Mintaqamizda IX asr o'rtalariga kelib arablarning ma'muriy tazyiqi ancha zaiflashdi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat birmuncha barqarorlashdi. Ayni paytda xalifalikda hokimiyat tepasiga kelgan abbosiylar sulolasi ilm-fan qadriga yeta boshladi.

Xorazmda, Xurosonda, o'sha paytda uning markazi bo'lgan Marvda IX asr boshlarida yangi ilm o'chog'i paydo bo'ldi. Bu yerga mintaqadagi ko'p olimlar to'plandi, ilmiy ishlar uyushtirildi.

Bu davrda Movarounnahr, Xuroson, Eron, bir qator arab mamlakatlarida ilm-fan keng ko'lamda rivojlana boshladi. Bu jarayonda arab (islom) madaniyatining shakllanishi va yangi sharoitda o'sishi muhim bo'ldi. O'z navbatida arab ilm-fani qadimgi yunon, shuningdek, ilk o'rta asrlarda yaratilgan Sharq allomalari asarlari ta'sirida shakllandi va rivojlandi. Avvalo, bunday asarlar izlab topildi, arabchaga tarjima qilindi, o'rganildi. Xususan, astronomiyaga oid "Sindxanta" asari hind tili — sanskritdan arabchaga o'grildi. So'ng Yevklidning "Negizlar" asari, uning ketidan 825-yili Ptolemeyning "Almagesti" yunonchadan arabchaga tarjima qilindi. Ko'pchilikka ma'lumki, bu asarlar matematika, astronomiya kabi aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlarning kelib chiqishiga oid edi.

IX asrning birinchi yarmida Xorun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun tashabbusi bilan Bag'dodda "Bayt ul-hikmat" ("Donishmandlar uyi") tashkil etildi. Ilmiy markazning asosiy vazifasi taraqqiyot ehtiyojiga zarur bilimlar, xususan, koinotni tadqiq etish, atrof-muhitni o'rganish, mantiq, falsafa, tabobatga oid bilimlarni rivojlantirish edi. Uning qoshida rasadxona, boy kutubxona tashkil qilindi. Ilm-fanning turli sohalariga tegishli 400 ming jilddan ortiq yunon, sanskrit, xitoy, lotin, fors, arab, yahudiy va boshqa tillarda yaratilgan asarlar to'plandi. Ularning talayginasi tarjima qilindi, sharhlandi. Bu ishlarga turli o'lkalardagi bilimdonlar jalb etildi. Bular ichida Markaziy Osiyoda tug'ilib voyaga yetgan, vatanida ilm olib, o'z iste'dodini namoyon qilgan 20 ga yaqin yosh olimlar bor edi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abbas ibn Said Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Xolid al-Marvarudiy kabi tajribali tadqiqotchilar xalifa Ma'mun tomonidan Bag'dodga taklif etildi. Yurtdoshlarimiz chet tillarda ishlatilgan murakkab atama va tushunchalarni berishga qodir arab atamashunosligini yaratishga va

uni boyitishga katta hissa qo'shdilar. Bundan tashqari Xorazmiy va Farg'oniy ilmiy markazda yetakchi olim, ilmiy yo'nalish rahbari bo'lib salmoqli tadqiqotlar olib bordilar. Ular Bag'dod va Damashqdagi rasadxonalar ishining samarali bo'lishiga erishdilar, boshqa yurtlarda (xususan, Hindistonda, Vizantiyada, Kordovada, Xazariyada) ilmiy safarlarda ham bo'ldilar.

Mashhur allomalarimizning ayrimlari xususida qisqacha bo'lsada to'xtalib o'tamiz.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850)ni ma'rifatli dunyo buyuk matematik, astronom, geograf sifatida tan oladi. U yunon fani yutuqlarini o'rgandi, hind, arab, eron va xitoy manbalari bilan yaqindan tanishdi. Xullas, o'zigacha mavjud bo'lgan ilm-fan merosini tahlil etib, boyitdi va fan tarixida abadiy iz qoldirgan fundamental asarlar yaratdi. Algebra, algoritm atamalari Xorazmiy nomi va ijodi bilan bog'liq. Uning arifmetika xususidagi risolasi XII asrda Ispaniyada lotin tilida tarjima qilingan edi. Kitob "Diksit Algorizm", ya'ni "Al-Xorazmiy deydi", deb boshlanadi. Uning matematikaga oid asarlari to'plami XVI asrda Rimda italyan tilida ham chop etilgan. Al-Xorazmiy hindlarning o'n raqamdan iborat martabali sanoq tizimini o'rgandi, soddalashtirdi, kengaytirdi va ilk bor arab tilida bayon qildi. Shul sabab u arab raqamlari deb dunyoga tarqaldi. X asrdayoq Rim papasi Silvesto II murakkab rim raqamlari o'rniga Xorazmiy qayta ishlab chiqqan "arab raqamlari"ni amaliyotga kiritish haqida farmon bergan. Ming yildirki, bu raqam qulayligi bilan inson xizmatida. Xorazmiy uchun ilm-fan kishilar hojatini chiqarmoqdir.

Ahmad al-Farg'oniy (797–865) astronomiya, matematika, geografiya va boshqa ilmiy yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatgan qomusiy olim. U o'zidan oldin yaratilgan falakiyot va riyoziyotga oid asarlarini (xususan, Ptolemeyning "Yulduzlar jadvali" asaridagi ma'lumotlarni) ko'rib chiqdi, Damashqdagi rasadxona ma'lumotlari bilan qiyosladi, yangi xulosalar bilan boyitdi va jahonga mashhur bo'ldi. Uning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi" 1145 va 1175-yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima etildi. Shundan so'ng al-Farg'oniy nomi lotinlashtirilib, "Alfraganus" shaklida G'arbgga tarqaldi. Alloma Ispaniyaning Kordova shahrida ilmiy markaz yaratdi va uning asosida ilk dorilfunun tashkil qilindi. Farg'oniy asarlari bo'yicha XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida ma'ruzalar o'qilgan.

O'ying yangi kashf etilgan ikki krateriga al-Farg'oniylar va Mirzo Ulug'bek nomlari berilganligi haqida 1647-yili polshalik Yan Geveliy yozgan edi. Farg'oniylar Nil daryosi suvining sathini o'lchaydigan noyob inshoot — usturlobni kashf etgan edi. Unga misrliklar "Miqyosi Nil" deb nom berganlar. U suv zaxiralardan o'zgarishlarini bashorat qilishda muhim o'rin tutgan. Usturlob eksponatlari hozirgi kunda Qohira muzeyida saqlanmoqda. Asrlar osha — 2007-yili Al-Farg'oniylar Qohirada "Misr sivilizatsiyasi ravnaqi yo'lidagi xizmatlariga yuksak ehtirom" sifatida salobatli haykal o'rnatildi. Hozirgi davrda Farg'oniylar asarlari Yevropa va Osiyoning qirقدan ortiq shaharlarida qo'lyozma yoki kitob sifatida saqlanmoqda.

Abu Nasr Forobiy (873—950) O'rta Osiyodan chiqqan ulug' mutafakkir va qomusiy olim. U o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 dan ortiq ilm sohasining tasnifi va tafsilotini bayon qilib bergan. Olim qalamiga mansub 160 dan ortiq asarlar mavjud. Uning falsafa, mantiq, falak harakatlari, fizika usullari, musiqa va she'riyatga oid risolalari ibratlidir. Forobiy qadimgi yunon allomalari — Yevklid va Porfiriy asarlariga sharhlar yozgan. Aristotelning "Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" va boshqa asarlarini izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bergan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asar yaratgan. O'zining "Fozil shahar aholisi maslagi" risolasida u Platonning odil jamiyat xususidagi mulohazalarini kengaytirgan, takomillashtirgan.

Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji Forobiy nomi bilan bog'liq. U o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Movarounnahr, Xuroson, Eron, Iroq, Misr, Suriya, Hindiston kabi mamlakatlarda uning nomi ulug'lanib, "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilar edi.

Rossiya tadqiqotchisi B. Petrov "Yevropani Aristotel ta'limoti bilan tanishtirish xizmati Forobiylar taalluqlidir" deb yozgan edi. Al-Forobiy asarlaridan G'arbning mashhur olimlari Leonardo da Vinchi, Bekon, Kopernik, Kepler, Leybnits va boshqalar foydalangan.

X asrda yashab ijod etgan Abu Abdulloh al-Xorazmiylar qadimgi yunon falsafasini, arab madaniyatini chuqur o'rganib, Al-Foro-

biy, Al-Kindiy, Ar-Roziy dunyoqarashlari ta'sirida ijod qilgan. Uning "Ilmlar kalitlari" asari ko'p asrlar davomida mashhur bo'lgan. Bu qomusiy asar o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Unda muallif har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li bilan tushuntirib beradi. Asarda ilmlar tasnifi har bir fanning asl ma'nosi (predmeti)ni aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda mohirona yoritilgan. Alloma dunyoviy bilimlar ustida to'xtalar ekan, ularning amaliy ahamiyatini ham ochib beradi. Masalan, asarning mexanika bo'limida og'ir yuklarni tashish va ekinlarni sug'orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, ularning tuzilishi, vazifalari haqida gap boradi.

Vatanimiz tarixini o'rganar ekanmiz, IX – XII asrlarda Markaziy Osiyo Sharqda ilm-fan, madaniyat markazlaridan biriga aylanganligini ko'ramiz. Xorazmda tashkil topgan ilm markazida Beruniy, Ibn Sino kabi daholar, ularning iste'dodli izdosh va shogirdlari o'ndan ortiq dunyoviy fanlar bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borganlar. Masalan, bu ilmiy dargohning xodimi Abu Nasr ibn Iroq taniqli matematik va astronom olim bo'lgan. U yaratgan ilmiy ishlar orasida Yevklidning "Negizlar" asari o'n uchinchi kitobida yuz bergan shubhani hal qilish haqidagi risola ham mavjud. Xorazmlik allomaning qadimgi donishlar asarlarini sinchiklab o'rganib, undagi kamchiliklarni seza olish va bartaraf etish xususidagi mulohazalari tahsinga sazovor.

Ushbu ilm dargohining keksa xodimi Abulxayr ibn Hammor tabobatga oid to'rt mazmundor monografiya yozgan va tabiblar saviyasini belgilovchi risola bitgan. Bundan tashqari falsafa, riyoziyot, falakiyot va mantiq sohalariga tegishli bir qancha arzigulik asarlar yaratgan. Alloma zamondoshlari uni "Ikkinchi Gippokrat" deb ataganlar.

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) bolaligidanoq xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lgan. U 10 yoshidayoq Qur'oni karimni yod bilgan. 13 yoshida matematika, mantiq, falsafaga qiziqadi va tabobatni chuqur o'rgana boshlaydi. U o'zidan oldin o'tgan Sharq allomalari merosini puxta o'rganadi, shu bilan birga qadimgi yunon mutafakkirlari Aristotel, Yevklid, Ptolomey, Gippokrat, Pifagor, Porfiriy, qadimgi Rim tabiblari Galen, Dioskorid asarlarini o'rgandi, tahlil qildi. Ibn Sino meditsina, falsafa, mantiq, tabiiy

fanlar, adabiyot, she'riyat, san'at va boshqa sohalar bo'yicha to'rt yuzdan ortiq asarlar yozgan. Ibn Sinoning serqirra ijodi Markaziy Osiyo madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. Uning ko'p asarlari o'sha davrda Yevropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali boshqa G'arb tillariga tarjima qilindi, tan olindi. Xususan, uning jahonga mashhur bo'lgan "Tib qonunlari" lotin tilida 30 martadan ortiq chop etilgan va G'arb-u Sharq meditsina xodimlari uchun ko'p asrlar davomida qo'llanma vazifasini bajar-gan. 1980-yili YUNESKO qarori bilan Abu Ali ibn Sino oltin medali ta'sis etilgan va xalqaro Ibn Sino fondi tashkil qilingan edi.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973—1048) as-tronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralo-giya, tarix kabi sohalarda asarlar yozib o'z mustaqil so'zi va fikrini ayta olgan donishmand edi. U Sharqning boy ilm-u fan va madaniyatini qunt bilan o'rgandi, yunon ilmi bilan ham yaqindan tanishdi. Beruniy allomalar asarlarini tarjimasini emas, balki aslida o'qishni hush ko'rardi. U ona tilidan tashqari arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon, qadimiy yahudiy, sanskrit — qadimgi hind tillarini egallagan va bu tillarda bitilgan ilmiy adabiyotlardan keng foydalangan. Xususan, VIII asrda bitilgan Ibrohim al-Faraziyning "Arablarning astronomik jadvali" ham-da Yoqub ibn Tariqning "Falak tarkibi" asarlari Beruniy risola-larida ehtirom bilan tilga olinadi. Beruniy o'spirinlik chog'idayoq Yerning sharsimon ekanligini tasdiqlaydi, 22 yoshida jahonda birinchi globusni yaratadi. U dastlabkilardan bo'lib osmon jism-lari harakatining troyektoriyasi ellips shakliga ega ekanligini aytgan. Allomaning bu fikrlaridan foydalanib XVII asrda nemis olimi I. Kepler sayyoralar harakati qonunini yaratdi.

Beruniy Aristotelning fan sohasidagi xizmatiga yuksak baho berish bilan birga tanqidiy fikrlar ham bildirgan. U Ibn Sino bilan bo'lgan yozishmalarida, asosan, yunon olimining "Fazo haqida", "Fizika" asarlari bo'yicha bahs olib borgan.

Mintaqamizning boshqa donishmandlari ham o'zidan oldin o'tgan allomalar mulohazalari bilan tanishishga intilgan, ularni ziyrak nigoh bilan ko'zdan kechirgan. Bunday yondoshish ko'pincha ularni avvalgi olimlar fikrlarining kuchli va zaif to-monlarini anglash, yangi g'oya va xulosalarga kelishda turtki bo'lgan. Xususan, qomusiy olim Faxriddin Roziy o'z muloha-

zalarida yunon allomalari Aristotel, Geraklit, Epikur, Demokrit, sharq donishmandlari Forobiy, Ibn Sino, Al-Kindiy kabi daholar mulohazalaridan keng foydalangan. Uning shoh asari "Ilmlar to'plami" XI asrgacha ma'lum bo'lgan oltmish bir fan sohaslarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, har bir fan mazmunini sharhlab bergan. Tibbiyot sohasining yirik bilimdonlari Abu Mansur Qamariy va Ismoil Jurjoniyy Gippokrat va Galen bilan g'oyibona bahslashganlar. Avitsennaning sodiq shogirdi Umar Hayyom mashhur shoir bo'lishi bilan birga aniq fanlar bilimdoni ham edi. Uning 1077-yili bitilgan "Yevklid kitobi muqaddimalaridagi mushkulotlar sharhi haqida risola" sida butun sonlarning ildizini topish yo'llari ko'rsatib berilgan. U boshqa asarlarida yunon, hind, arab olimlarining aniq fanlarga oid fikrlarini keng sharhlash bilan birga, ularning qarashlarini rivojlantirgan, matematik, fizik tenglamalarning modellarini topgan.

Forobiy ijodining ixlosmandi, o'lkamiz madaniyatining yirik bilimdoni Nosir Xisrav Sokrat, Platon, Aristotel asarlarini astoydil o'rganishga harakat qilgan. Astronom va matematik Nosiriddin Tusiy "Tahriri Uqlidis" asarida Yevklidning 5-postulatini isbotlash jarayonida noyevklid geometriyaning ayrim teoremlari va aksiomalarini ta'riflagan. U "Shakl ul-qit'a" asarida trigonometriyani mustaqil fan sifatida bayon qiladi. Bu asar trigonometriyaning Yevropada tarqalishida asosiy o'rin tutdi. Samarqandlik Mahmud al-Chag'iniy bir qancha xorijiy astronomlar yutuqlarini yaxshi bilgan holda bir qator taxmin va farazlarni olg'a surdi. Bu gipotezalar keyingi davrda o'z isbotini topdi. Shamsiddin Samarqandiy Ptolemeyning "Almagesti"ni batafsil sharhlab yirik kitob yaratgan va bu asar Movarounnahr, Xuroson va Eronda qiziqib o'qilgan.

Ko'rinib turibdiki, mintaqamiz allomalari qadimgi dunyo donishmandlari mulohazalari bilan yaqindan tanishganlar, shu bois ularning nomlarini qayta-qayta tilga olganlar. Bu holat allomalarimizning xolisligidan, halolligidan, vijdoni pokligidan dalolat beradi. Xullas, vatandoshlarimiz o'zidan oldingi o'tgan olimlarga ta'zim qilgan holda, ularning fikr-mulohazalarini rivojlantirdilar, bilim chegarasini kengaytirdilar, kezi kelganda ular bilan bahslashdilar, arzigulik yangiliklar yaratdilar. Zero, daholar o'zidan oldin o'tgan buyuklar yelkasida turib uzoqni yaxshi ilg'aydilar, kelajakka dadil odim tashlaydilar. Bu taraqqiyot qonunidir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan donishmandlar bilan birga mintaqada o'nlab, yuzlab ularning izdoshlari samarali ijod qildilar. Tabobat va dorishunoslikda Al-Qumriy, Sharafutdin al-Iloqiy kabi olimlar unumli mehnat qilganlar. Kimyo fani ravnaqiga Abu Bakr ar-Roziy, Abul Hakim al-Kosiy, geometriya va trigonometriya fanlari rivojiga Shamsuddin A'loul Buxoriy, falsafa fani rivojiga ibn Miskavayx, Taftazoniy kabilarning hissasi katta bo'lgan. O'lkamizda tarix, tilshunoslik, badiiy adabiyot va san'at keng ko'lamda rivojlandi.

Bu davrlarda dunyoviy fan va madaniyat bilan bir qatorda islom dini mazmunini anglash, uning mohiyatini o'rganish borasida mashhur imom al-Buxoriy (810—870) va at-Termiziy (824—892) lar islom dunyosida vujudga kelgan minglab hadis-larni sinchiklab o'rgandilar, xolis va ishonarlilarini ajratib, ularga sharhlar berdilar. Bu buyuk zotlar mashaqqatli ijodlarida va amaliy ishlarida musulmonchilikning asl ma'nosini mahorat bilan ochib berdilar, islomning ilm-fanga, madaniyatga, umuman taraqqiyotga bo'lgan ijobiy ta'sirini ko'rsata bildilar.

Bu buyuk hadisshunoslarning sadoqatli izdoshlari Abdu-rahmon an-Nasoniy, Abu Mansur al-Moturidiy, Qaffol ash-Shoshiy, Abu Iso as-Samarqandiy kabi ulamolar musulmon dunyosining yirik mutafakkirlari sifatida ko'pchilikka mashhur bo'ldilar. Xususan, shayx al-Moturidiy fikricha, bilimning uch manbai mavjud. Ular his (sezgi), naql-rivoyat va aql-idrokdir. Shu bilan birga ul zot aql-idrokning alohida o'rni borligini ta'kidlaydi. Demak, aqliy dalillar va isbotlar asosida voqelikni anglamoq har bir inson uchun o'ta muhimdir. Shariat qonun-qoidalarini chuqur tahlil etib, "Hidoya" asarini yaratgan Burxoniddin Marg'inoniyning mulohaza va tavsiyalari islom dunyosida ko'p asrlar davomida muhim manba, u yoki bu masalani adolat va insof nuqtayi nazaridan hal etishda asosiy qo'llanma vazifasini bajargan.

XI asrda o'tgan Yusuf Xos Hojib o'z zamonasida ma'lum bo'lgan barcha fanlardan yaxshi xabardor bo'lgan kishi edi. Ul zot astronomiyaga oid ma'lumotlar bilan qiziqadi, tabobatning ko'p tomonlarini e'tibor bilan o'rganadi. Turli-tuman kasb-hunarlarning hayotdagi o'rni xususida foydali fikrlar bayon qiladi. Ayni paytda Yusuf Xos Hojib ko'p tillarni bilgan adabiyotshunos ham edi. Olimning turkiy tilda bitilgan shoh asari "Qutadg'u bilig", ya'ni "Saodatga boshlovchi bilim"dir. Bu

asar xususida risolaning ikkinchi qismida gapirilgan edi. Adib ta'kidlaydiki, jahonda bilimdan qadrliroq hech narsa yo'q. Bilimsizlik aslida kishi uchun haqoratdir, deydi va baxt, qut-baraka ilm orqali, ong orqali kelishini mahorat bilan ifoda qiladi.

X asrda yashab ijod qilgan yirik mutafakkirlardan biri Abu Bakr Qaffol ash-Shoshiy bo'lgan. Ul zot 903-yilda Toshkentda hunarmandlar oilasida dunyoga kelib, mohir usta bo'lib yetishdi. Ayni paytda madrasada o'qib katta zehn sohibi bo'ldi. So'ng ma'rifat o'choqlari Samarqand, Buxoro va Termizda bo'lib bu yerlardan o'zidan oldinroq o'tgan imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy kabi ulug'lar merosini chuqur o'rgandi. U falsafa, mantiq, adabiyot sohalarini ham bilar edi. Arab tilini mukammal bilgan Ash-Shoshiy Hijoz, Bag'dod, Damashq shaharlarida bo'lib ustozlar orttirdi. U qonunshunoslik, mantiq sohalariga oid "Qozining fe'l-atvori", "Baxs odobi", "Dialektika go'zalligi" kabi nodir asarlar yaratdi. Ularda halollik masalalari asosiy o'rin egallar edi. O'ta qo'li ochiq, muloyim inson Ash-Shoshiy ko'p yillar davomida Toshkentda imomlik qilgan, uni shahar ahli katta ehtirom bilan "Hazrati imom" deb atar edi. Xalqimiz ma'naviy merosining uzviy bir qismi bo'lgan Hazrati Imom me'moriy majmuasi yurtimiz va musulmon olamida katta obro'-e'tibor qozongan tabarruk maskandir. Uning tariximiz, ma'naviy hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib, hamda uning asl tarixiy qiyofasini tiklash, majmuaning infratuzilmasini har tomonlama rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 2007-yil boshida maxsus qaror qabul qilganligi ham e'tiborlidir.

Demak, bir davrda va bir makonda ham dunyoviy fanlar, ham diniy bilimlar rivojlangan, ular biri ikkinchisiga keskin ziddiyatda bo'lmagan. G'arb mamlakatlarda deyarli yetti asr davomida inkvizitsiya-jaholat hukm surgan, ilm-fan quvg'inda bo'lib, xurofot esa keng ildiz otgan bir vaqtda musulmon yurtlarida, xususan, O'rta Osiyoda, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot yuz berdi va yuksaldi. Donolik ramzi bo'lgan bu ajoyib holatning asosiy sabablaridan biri islomning bilimga ijobiy qarashidadir. Ayni paytda, dunyoviy ilm ahli islomni nafaqat inkor etmadi, balki ko'p jihatdan unga tayandi, musulmonchilikning ahloqiy, ma'naviy sifatlari ularga madad bag'ishladi. O'lkamizda bu yuksalishning eng muhim xislati insonparvarlik



bo'lgan. Islom konferensiyasi tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan 2007-yili Toshkentga Islom madaniyati poytaxti maqomining berilishi O'zbekistonning jahon Islom madaniyati rivojiga qo'shgan yuksak hissasining tan olinishidir.

XI asrga kelib o'lkamizda tasavvuf (so'fiylik) ta'limoti keng tarqala boshladi. Uning yirik namoyondalari Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni odamlarni kamtarlikka, halollikka, bag'rikenglikka, insofli, vijdonli bo'lishga astoydil da'vat etdilar. Ayni paytda bu ulug'lar mo'minlarni bilim olishga chaqirdilar.

Yuqorida asosan IX–XII asrlarga oid allomalar, ular kashfiyotlari xususida qisqa to'xtaldik. Mo'g'ullar istilosidan so'ng ko'p ilm maskanlari vayron bo'lib, bilim izlovchilar nochor holda qolgan, ayrimlari vatanni tark etib o'zga yurtlarga ketib qolgan edilar.

Temuriylar davrida fan, madaniyat, san'at qayta tiklandi va keng rivojlandi. Sohibqiron avvalo jahonga dong'i ketgan olimlarni, madaniyat arboblarni, me'mor va bunyodkor ustalarni Samarqandga taklif qildi, ularning bu yerda ijod qilishlariga sharoit yaratdi. Bular orasida Sa'diddin Taftazoniy, Mirsaid Jurjoniy, Fosix Xavofiy, Nizomiddin Shomiy kabi allomalar bor edi.

XV asrda mashhur astronom va matematiklar Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi, Muiniddin Koshoniylar Samarqandda tashkil topgan ilm markazida (adabiyotda u Ulug'bek akademiyasi ham deyiladi) barakali faoliyat ko'rsatdilar. Bu maskanda ikki yuzdan ortiq ilm fidoyilari ish olib borganlar. Ularning Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda ijod qilgan olimlar asarlaridan bahramand bo'lganligi ham ibratlidir. Ayni paytda ular sharq-u g'arbning boshqa ko'p allomalari asarlaridan ham xabardor bo'lganlar.

Alisher Navoiy asarlari ham o'sha davrlardan buyon dunyoga mashhur. Xususan, 1557-yili Venetsiyada italyan tilida, 1583-yili Bazelda nemis tilida bobomiz asarlari chop etilgan edi. Keyingi asrlarda jahonning ko'pdan-ko'p mamlakatlarida istiqomat qiluvchilar o'z ona tilida Navoiy ijodi bilan tanishganlar. 2007-yil bahorida AQSH Kongressining mashhur kutubxonasida A. Navoiy ijodiga va merosiga bag'ishlangan xalqaro simpozium bo'lib o'tgan edi. Unda «Farhod va Shirin»ni 3 jahon tiliga tarjima qilgan Kaliforniya universiteti professori

A. Bodrogligiti o'zining chiqishida: "Gar tog'lar orasida eng balandi Everest bo'lsa, shoirlar orasida eng buyugi Mir Ali-sherdir", — deb uning ijodiga yuksak baho berdi.

Allomalarimiz samarali izlanishining muhim omillaridan biri ularning bir qancha tillarni o'zlashtirganliklaridadir. O'sha paytlarda keng mintaqada ilm-fan tili bo'lgan arabcha xususida ikki og'iz so'z.

VIII asrda xalifalik tasarrufiga o'tgan Markaziy Osiyoda ham arab tili keng ko'lamda singdirila boshlandi. Ma'lum bo'ldiki, arab grammatikasi va so'z boyligi ko'p fazilatlarga ega ekan. IX—XII asrlarda va undan keyin ham arab tili katta nufuzga ega bo'lgan. Mashhur nemis olimi G.Gegel 1837-yili o'zining "Tarix falsafasi" asarida "Fan va bilimlar, ayniqsa, falsafa G'arbg'a arablardan o'tgan" deb yozgan edi.

Markaziy Osiyo donishmandlari arab tili mohiyatini tez orada angladilar, uni qunt bilan o'rgandilar. Buyuk tabib, astronom, matematik, faylasuf Ibn Sino ayni paytda 10 jildlik "Arab tili kitobi"ni yaratdi. Xorazmli alloma Mahmud Zamaxshariy ijodida arab tili so'z tuzilmalarining qoidalari asosiy o'rin egallagan. Uning asarlari arab dunyosida bu tilni o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida tan olingan. Qomusiy allomalarimiz asarlari arab tili orqali XI—XVI asrlarda lotin tiliga, so'ngra Yevropa tillariga tarjima qilingan va jahon ilmi maskaniga kirib borgan edi.

Oradan bir necha yillar o'tgandan so'ng ham yurtimizda arab tiliga e'tibor kuchli bo'lgan. Xususan, temuriylar davrida Abdurazzoq Samarqandiy arab tili grammatikasining ba'zi masalalariga oid bitilgan kitobga sharh yozib, uni Shoxruhga taqdim etgan edi. Alisher Navoiy "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida ko'p tillar xususiyatini ta'riflar ekan, arab tili nafisligi va badiiyligi bilan mo'jiza ko'rsatuvchi kalomdir, degan edi.

Bugungi kunda ham o'zbek, tojik, qozoq va boshqa tillarda arabchadan o'tgan anchagina so'zlar mavjud. Bu o'zlashgan so'zlar turli sohalarga oid bo'lib, ona tilimizga moslashgan holda qo'llaniladi. Masalan, madaniyat, ilm, fan, ta'lim kabi so'zlar shular jumlasidadir. Ismi-shariflarimizning ham talayginasi arabchadan olingan.

Darvoqe, arab so'zlari, atamalari hozirgi zamonda fors, ispan, fransuz, ingliz, rus, nemis, turk, hind va boshqa tillarda ham uchrab turadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yili

arab tilini ingliz, ispan, xitoy, rus va fransuz tillari qatori xalqaro tashkilotning ishchi tili hisobiga kiritganligi ham bejiz emas.

Til o'rganish xususida mulohaza qilar ekanmiz lug'atlar ahamiyatini yodda tutaylik. XI asrda yaratilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", XII asrda tuzilgan Mahmud az-Zamaxshariyning to'rt tilli lug'ati va keyingi vaqtlarda bitilgan boshqa lug'atlar ziyolilar uchun o'ta qadri bo'lgan. Ular turli elatlarni yaqinlashtirishda muhim o'rin tutgan.

Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridagi saroylar huzurida IX asrdan boshlab o'qimishli hukmdorlar homiyligida kutubxonalar barpo etilgan. Buxoroda bir qancha kutubxonalar va kitob bozorlarining bo'lishi diniy va dunyoviy bilimlarning yoyilishiga imkon bergan. Ibn Sino Forobiyning Aristotel "Metafizika" sigiga doir asarini Buxoro bozoridagi kitob rastalaridan topganligini eslaylik.

Ilgarilari saroy va madrasalarda saqlanib kelgan qo'lyozmalar (bu davrda hali noshirlik kashf etilmagan edi) asta-sekin kutubxonalarda to'plana boshlaydi.

Xullas, IX–XII asrlarda, hamda Temur va temuriylar davrida yaratilgan bebaho madaniy yodgorliklar orasida kutubxona o'ziga xos nufuzga ega bo'lgan. Ularda qadimgi davrlardan tortib, o'rta asrlarda ijod qilgan mashhur olimlar, adiblarning asarlari jamlangan edi. Bu kitoblar ko'p olimlarga muhim manba bo'lgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham ilm-fan rivoji uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratilmoqda. Internet tizimi va umuman axborot texnologiyalari yoshlarimizni samarali tahsil olishlarida benazir xizmat qilmoqda. Masalan, mamlakatimizda kompyuter dasturlarini tayyorlashda akademik Vasil Qobulov tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'zbekim dasturlari" elektron nashriyoti muhim o'rin egallamoqda. Bu yerda qisqa davrda o'zbek-rus-ingliz tillarida atama va iboralar lug'atlari, bir qancha boshqa zaruriy ma'lumotlar tayyorlandi. Darsliklarning elektron variantlari, hatto elektron gazetalar paydo bo'lmoqda.

Internet tizimi, shuningdek, televideniye ko'p lozim bo'lgan axborotlarni yetkazib berishga qodir. Bu, tabiiyki, katta qulaylik. Shu bilan birga, fikrimcha, kitobning o'rni o'zgacha. Kitob kishi tafakkuriga kengroq ta'sir qiladi, insonni o'ylashga, mulohaza qilishga nisbatan ko'proq imkoniyat yaratadi. Shu-

ning uchun ham an'anaviy adabiyot va kutubxonalarining muhimligini ham yoddan chiqarmaslik lozim bo'lsa kerak.

Ta'kidlash joizki, ajdodlarimiz ilm-fanda yuksak natijalarga osonlikcha erishganlari yo'q. Ularning hayoti, ijodiy faoliyati dalolat beradiki, bilimli bo'lish, tahliliy mulohazalarga borish, ixtirolar qilish murakkab jarayon bo'lib, ko'p mashaqqatlarni yengish samarasi ekan. Shuning uchun ham dono xalqimiz ilm olishni igna bilan quduq qazishdek og'ir yumushga qiyos qiladi.

Demak, ilm egallashga bel bog'lagan shaxs irodasi kuchli, sobit inson bo'lib bu yo'ldagi turli qiyinchiliklarni yenga bilishi, nogahon vujudga kelgan og'ir sharoitlarda ham imkon topa bilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur ekan. Baxtimizga allomalarimiz ana shunday xislatlarga ega bo'lganlar.

Tarixdan bilamizki, inson o'tmishi doimo ravon kechgan emas ekan. Zamon turli ziddiyatlarga uchrab, jamiyatdagi muvozanat vaqti-vaqti bilan buzilib turgan. Buning ustiga kishilarning xudbinligi, ayrimlarning kajraftorligi, tersligi, o'zgalarni ko'rolmasligi ilm ahliga yangidan-yangi qiyinchiliklar tug'dirib kelgan.

Masalan, yosh Abu Ali ibn Sinoning keng ko'lamdagi bilimi, zukkoligi, ayniqsa, haqqoniy cho'rtkesar fikrlari barchaga ham yoqa bermagan. Uning tabobat bobida tez orada mashhur bo'lganligini ko'rolmaganlar Ibn Sinoning inson tanasini o'rganishdagi jarrohlik faoliyatiga qarshi chiqqanlar. Buxoroda ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgarganda Ibn Sino Xorazm Ma'mun akademiyasiga ketishga majbur bo'ldi. Saljuqiylar bosqini tufayli u Xorazmni ham tark etdi va Eronning turli shaharlarida sarson-u sargardon bo'lib tunlarni bedor o'tkazdi. Jurjonga kelgach, Ibn Sino hokim saroyida tabiblik qildi. So'ng Xamadonda vazir lavozimida xizmat qilar ekan tuhmatga uchrab 4 oy qamoqda ham yotib chiqdi. Isfahonga kelgach bir necha yil ilmiy asarlar yaratish bilan shug'ullandi. Ammo o'lkada siyosiy alg'ov-dalg'ovlar uni yana musofir bo'lishga majbur etdi. Oqibatda kasalga chalilib 57 yoshida xorijda vafot etdi.

Hadis ilmida yuksaklikka erishgan Ismoil al-Buxoriyni butun islom dunyosi sidqidildan chuqur ehtiromlar bilan tan olganligini yaxshi bilamiz. U yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sdi, aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib ulg'aydi. 825-yili 16 yashar o'spirin onasi va akasi bilan muqaddas yerlar – Makka va Madinani ziyorat qildi.

So'ng onasi va akasini Buxoroga jo'natib, o'zi olti yil Hijozda yashadi, Damashq, Qohira, Basra, Bag'dod kabi shaharlarda bo'ldi, u yerdagi ulamolalar bilan munozaralar olib bordi, ustoz-u shogirdlar orttirdi. U islomiyatni chuqur va atroflicha o'rgandi. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadislarini yod bilganligi ko'rsatilgan. U muttasil, tinimsiz ilmini oshirib, hadislarining ishonarlilarini ajratib oqqa ko'chirdi. Nishopurda besh yil davomida madrasada hadis ilmidan dars berdi. U, xorijdan qaytgach Buxoroda ko'plab shogirdlarga saboq berdi. Ismoil Buxoriy muruvvatli, himmatli, sahovatli inson bo'lgan. Shu bois ham uning hurmati el oldida yuksak edi. Ammo, ba'zi qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko'rolmas edilar. Ularning hasadgo'yiligi tufayli Buxoro amiri Ahmad az-Zuhaliy bilan munosabatlari keskinlashadi va nihoyat, amir imomni shaharni tark etishga buyuradi. So'ng al-Buxoriy Samarqandning Xartang qishlog'iga ko'chib ketishga majbur bo'ladi.

Bugungi kunda islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis al-Buxoriyning maqbarasi obod va ko'rkam qadamjoldardan biriga aylangan, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir.

XI asrda yashab ijod etgan buyuk olim, turkshunoslik asoschisi Mahmud Qoshg'ariy noyob asar: «Devonu lug'atit turk»ni yaratgan. Bu mumtoz asar ustida muallif uzoq yillar davomida ishlagan. U 15 yil davomida Shimoliy Chin, Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Volgabo'yi, O'rol va boshqa turkiy qavmlar istiqomat qilgan yerlarda bo'lib, suhbatlar qurgan, ma'lumotlar to'plagan, so'ng to'rt yil davomida bu ma'lumotlarni tartibga solgan. Zero "Devon" olimning musofirchilik noqulayliklariga sabr qanoat etib qunt izlanishi mevasidir.

O'rta Osiyoli donishmandlar bilim izlab turli yurtlarga borganlar, g'ariblikda yashab ko'p qiyinchiliklarga bardosh berganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurti Sirdaryo qirg'og'idagi Forobda olgan. So'ng Toshkent, Buxoro, Samarqandda o'qigan. Keyinroq o'z ilmini oshirish niyatida Bag'dodda bo'lib, bu yerda yunon falsafasi bilan chuqur tanishadi, o'zga diniy e'tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan muloqotda bo'ladi, tabobat va mantiq ilmiga astoydil qiziqadi. So'ng Damashqda shahar chekkasidagi bog'da qorovullik qilib, kamtarona kun kechirib o'z ilmini chuqurlashtiradi, uning yangidan-yangi qirralarini o'rganadi. Keyin Xalabda bir necha

yil yashab ilm ahli davrasida katta nufuzga ega bo'ladi, uni hokim saroyida xizmat qilishga taklif etadilar. Lekin Forobiy bunga ko'nmay, oddiy hayot kechirishni afzal ko'radi. Uning hayotida shunday kunlar ham bo'lganki, u tunlari Oy yorug'idan foydalanib, kitob mutolaa qilgan.

Og'ir illat tufayli yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan Mahmud Zamaxshariy ilmga havasmand bo'lib o'sgan. U, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy bilimlarni puxta o'rganadi, o'sha davrlarda o'ta qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egalab o'z tirikchiligini bir qadar tuzatadi. Bilimini yanada kamol topdirish maqsadida Buxoroga boradi. Sog'lig'i og'irlashgach mol-dunyo ta'masidan kechib, qolgan umrini faqat ilmga bag'ishlaydi. U Isfahonda, Bag'dodda, Makkada, Hijozda, Shomda yashadi, ustozlardan o'rgandi. Qaytib kelib Xorazmda yana besh yil umr ko'rdi. U 1121-yili arab tili grammatikasiga oid yirik asar "Al-Mufassal"ni yozib tugatdi. Bu nodir kitob arab dunyosida ham, boshqa yurtlarda ham eng qadrlı qo'llanma sifatida ko'p asrlar davomida xizmat qildi. Bu qo'lyozma asar 1835-yili nemis tilida arabcha matni bilan, 1873-yili usmonli turk tilida, 1886-yili fransuz tilida nashr etildi. Zamaxshariyning "Notiqlik asoslari", "Nozik iboralar" asarlari arab lug'atshunosligiga bag'ishlangan bo'lib, XIX asrda Qohira va Bayrutda, tarjima qilingan holda Parij va Qozonda chop etildi.

XII asrda dunyoga kelgan vatandoshimiz Ahmad Yugnakiy mutafakkir adib bo'lgan. Ahmad onadan ko'zi ojiz tug'ilgan ekan. Oradan uch asr keyin ijod qilgan Alisher Navoiy Yugnakiy asarlarini tahlil etar ekan bu haqda shunday yozadi: "Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko'zin yopuq yaratgandur, ammo ko'ngil ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur". Ahmad yoshligidan qobiliyatli bo'lgan. U Qur'oni karimni yod olib, hadislarini yaxshi o'zlashtiradi. U "Haqiqatlar tuhfası" deb nomlangan asar yaratadi. Unda ma'rifatning foydasiyu jaholatning zarari, til odobi, dunyoning o'tkinchiligi, sahiylik va bahillik kabi masalalar mohirona yoritiladi. Asar tili ravon, muammolar aniq, tushunarli qilib yozilgan edi. Yugnakiyning bu asarini 1444-yili Mirzo Ulug'bek yangidan ko'chirtirganligi ma'lum. Taniqli sharqshunos olim Yevgeniy Bertels bu asar mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda muhim o'rin egallagan, deb ta'kidlagan edi. Zero, Yugnakiy bu asari bilan milliy

adabiy tilimiz rivojiga katta hissa qo'shgan. Bu nodir asar XX asr boshida Fitrat, Oybek kabi adiblar, olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan va yuksak baholangan. Ushbu asar 1968 va 1971-yillarda Toshkentda chop etilgan.

Yuqorida ayrim donishmandlarimizning ilm egallashga intilib qanchadan-qancha qiyinchiliklarni yenga olganliklari ustida so'z bordi. U yoki bu darajada Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuklar ham talaygina to'siqlarni yengib, suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib barakali ijod qilganlar. Ular muvaffaqiyatining zaminida muhim fazilatlar bo'lgan. Bu ularning qiziquvchanligi, jiddiy izlanuvchanligi, masalaning yechimini topishda zahmat chekishga ruhan tayyorligi, huzur-halovatdan voz kechishi, halol va xolis tadqiqot olib borishi, falsafiy idroki, bir so'z bilan aytganda allomalarimizning ilm-fanga behad fidoiy bo'lganliklaridadir.

Insoniyat tarixi dalolat beradiki, taraqqiyotga astoydil intilgan mamlakat o'z yuksalishida oldingi davrlarda yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtira borib, moddiy, ma'rifiy va ma'naviy madaniyatda yangi cho'qqilarni egallar ekan. Bu aqlan to'g'ri, tabiiy hol, uni sivilizatsiya rivojlanishining qonuniyatlaridan biri desak to'g'ri bo'ladi.

Shu bilan birga, bunday yuksalishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy asoslari mavjud bo'lmog'i darkor. Markaziy Osiyoda somoniylar davlati, qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida nisbatan osoyishtalik vujudga keldi. Moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha tezlashdi, shaharlar hayoti yuksala bordi. Hunarmandchilik turlari ko'paydi, me'morchilik avj oldi, savdo ishlari qayta rivoj topdi. Ijtimoiy sharoit tiklanish, taraqqiyot, ilm-fanga intilish zaruratini taqozo etar edi. Davlat tizimida madaniyatni yaxshi anglagan ma'rifatli kishilar ko'paya bordi. Bu asrlardagi kashfiyotlar va bilimlar ko'p jihatdan hayotiy bo'lib, ijtimoiy ehtiyojni, o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar talabini qondirish bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, al-Xorazmiy o'zining "Al-jabr val-muqobala hisobi" kitobida asar adliya ishlarida, savdo va har qanday bitimlarda, yer o'lchashda, kanal o'tkazishda, meros taqsimlashda va boshqa turli ishlarda kishilar uchun zarur, deb yozgan edi.

Zero, o'sha asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat

Markaziy Osiyoda umuman madaniyatning keng ko'lamda rivojlanishini taqozo qilar edi va shunday bo'ldi ham.

Ajdodlarimizning ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat sohalari-dagi buyuk jasorati bizga — mustaqil O'zbekiston ahliga na-faqat boy meros, balki katta saboq, ulkan ibratdir.

Prezidentimiz Islom Karimov 2005-yil dekabrda talabalar bilan bo'lgan suhbatida donishmandlarimiz qoldirgan buyuk merosga biz, ularning avlodi bo'lib, nima ulush qo'shamiz, bu boylukni ko'paytirishda bizning hissamiz qanday bo'ladi, degan savolni har qaysimiz, avvalambor yoshlar, o'zimizga berib yashashimiz lozim. Shundagina ajdodlarimizga munosib bo'lib, ularning ishini davom ettirish uchun belni mahkam bog'lab, intilamiz, o'zimizga qandaydir kuch-quvvat topamiz, degan edilar. Bu karomatli da'vatdir.

Xalqimiz uzoq asrlar davomida orzu qilib kelgan istiqlol 1991-yil ro'yobga chiqdi. O'zbekiston mustaqillikning ilk kun-laridanoq o'ziga xos va o'ziga mos to'g'ri yo'lni belgiladi.

Olimlarimiz kuch-g'ayrati bilan o'tmishimizning ko'p muhim sahifalari ilmiy asosda xolis qaytadan yaratildi. Asrlarga teng mustaqillik yillarida milliy an'ana va udumlarimiz tiklandi, alloma-larimizning tabarruk nomlarini bugungi avlod qayta kashf etdi, nohaq xo'rlangan ajdodlarimiz ruhi poklandi. Islom dini avval-gidek ruhiyatimiz asosi bo'lib bormoqda. O'zbekiston deb atal-mish Vatan jahonga yuz tutmoqda, uni dunyo mamlakatlari tan olmoqda, yer kurrasida uning mavqei, nufuzi ortib bormoqda.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash, xalqimiz boy madaniy-ma'naviy an'analarni tiklash davlat si-yosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Shu bois Islom Karimov iborasi bilan aytganda, tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ish-lari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda, axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda buyuk allomalarimiz asos solgan ilmiy tafakkur an'analarni davom ettirish va boyitish uchun yetarli imkoniyatlar yaratilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amal-ga oshirilmogda. Aspirantlar, magistrlar va talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, ularni taqdirlash va moddiy rag'batlantirishga doir farmon va qarorlar qabul qilindi, Pre-zidentning Davlat stipendiyalari ta'sis etilgan, ilmiy stajirovka-



lar belgilangan, xoriydagi peshqadam universitetlarda grant yo'li bilan talaygina ilm ixlosmandlari ta'lim olmoqdalar.

Bugungi ilmi toliblar allomalarimizning ishonchli vorislari bo'lishi – zamon talabi, millat orzusidir, ular istiqbolga xizmat qilmog'i darkor.

Prezidentimiz Islom Karimovning da'vatlarini o'qir ekanman xalq shoiri G'afur G'ulomning Yetuklik attestati olib olg'a intilgan yoshlarga qarata: "Aziz o'lkamizning aziz farzandlari, bilib qo'ying, sizlarni Vatan kelajagi kutadi", degan iborasi ko'pincha yodimga tushadi.

## XULOSA

Ushbu darslik barcha yo'nalishdagi talabalarga mo'ljallangan. Shu bilan birga gumanitar fanlarni kengroq o'zlashtirayotgan yoshlarga ko'proq yordam bersa kerak, degan umiddamiz. Ushbu risolada ayrim buyuk shaxs-larning, tarixiy hodisalar (xususan, davlatchilikka oid) bir necha bor tilga olingan. Buning uchun uzr. Lekin bu holat mavzuning turli taraflariga o'quvchi diqqatini qaratish niyatidan kelib chiqqan. Ko'pqirrali o'tmishimizning ayrim taraflari to'g'risida qisqa bo'lsada to'xtaldik. Bayon etilgan mulohazalar munozarali ham bo'lishi mumkin. Balki bu yaxshidir.

Prezidentimiz Islom Karimov 2005-yil dekabrda yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvda o'tmishni o'rganishning ahamiyati haqida gapirib, "Tarixni bilmagan avlodning kelajagi yo'q", degan iborani ishlatdilar. Qisqa, lo'nda, g'oyat ayon ibora.

Tarixga murojaat qilish haqiqatni bilish vositasidir. Tarixiy xotira xalqimiz ijobiy tajribasini to'plashga imkon beradi. Shu bilan birga, tarixni o'rganish o'tmishni tanqidiy nigoh bilan idrok etishga, bo'lib o'tgan xatolar sababini anglashga, undan zaruriy xulosalar chiqarishga insonni undaydi. Va, nihoyat, tarix ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini aniqroq bilishga ko'mak beradi. Demak, o'tmishimizni o'rganishdan asosiy maqsad, tarixiy haqiqatni anglab, taraqqiyot qonunlarini yaxshi tushunish va shu asnoda kelajak uchun zaruriy xulosalar qilishdir.

Tarixdan bilamizki, jamiyat doimo bir holatda turmaydi. U o'zgaradi, rivojlanadi, takomillashadi, tanglik va bo'xronga uchraydi, tanazzulga yuz tutadi. So'ng yangi asosda qayta qad ko'taradi. Zero, tarixiy tajribadan ijobiylarini bugungi kun uchun olmoq es-hushi bor, aqlli odamlar burchidir.

Mintaqamiz uzoq o'tmishidan ma'lum bo'ladiki, odamlar o'z mehnati, fahm-u farosati bilan mo'lchilikka, farovon hayotga erishganlar. Oddiy kishilarga, keng xalq ommasiga o'zaro hurmat, andisha, or-nomus, insoniy an'analar doimo hamroh bo'lgan. Ular fojiali damlarda ham insoniylik fazilatlarini saqlab qolganlar. Ularga o'zgaralar mulkiga ko'z olaytirish, qo'zg'alon, inqilob yot bo'lgan. O'zaro munosabatlarda kelishilgan shartlar — lafz muqaddas hisoblangan. Tabiatning qadriga yetish, musaffo havo, yer, suvni avaylab asrash muhim burch bo'lgan. Davlat tashkilotlariga nisbatan itoatda bo'lmoq tabiiy hol hisoblangan.

Qonunga rioya qilish, unga bo'ysunish ajdodlarimizning muhim xislatiga aylangan edi.

Mentalitetimizga oid bu va shunga o'xshash mumtoz fazilatlarini o'tmishimiz sahifalarida muttasil uchratamiz. Darhaqiqat, tarix — bu porloq ko'zgu, tuganmas saboq maktabi. Tarix aslida jozibali fan, deb o'ylayman.

## **Mundarija**

1. Moziyni bilib ish qilmoq xayrlidir.....	4
2. Jamoa, shaxs va davlat xususida.....	16
3. Munavvar o'tmishimiz da'vatlari.....	36
4. Jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa.....	57
Xulosa.....	75

## QAYDLAR UCHUN

A. ABDUNABIYEV

**TARIX – MUNAVVAR KO‘ZGU**

Nashr uchun mas’ul *M. Tursunova*

Muharrir *G. Yusupova*

Musahhih *H. Zokirova*


Sahifalovchi *N. Mamanov*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti»  
100029, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Terishga berildi 01.04.2007. Bosishga ruxsat etildi 14.06.2007.  
Ofset usulida chop etildi. Qog'oz formati 60x90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Shartli bosma  
tabog'i 5,5. Nashr bosma tabog'i 5,0. Adadi 1000 nusxa.  
Buyurtma № 7. Bahosi shartnoma asosida.

«AVTO-NASHR» bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

ISBN 978-9943-319-09-7



9 789943 319097